

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

HABIBULLAYEV IRODA HAMIDULLAYEVNA

**TURKISTONDA BOLALAR VA AYOLLAR AHVOLI
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

Magistratura mutaxassisligi: 5A220201 – O‘zbekiston tarixi

DISSERTASIYA

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Abdulla Nuritdinovich**

NAMANGAN - 2012

Magistrlik ishining asosiy maqsadi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va sovet hukumatining Turkistonda xotin-qizlar va bolalar masalasini hal etish bo'yicha amalga oshirgan ishlarini o'rganishdan iborat.

MUNDARIJA

Kirish 3

I bob. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda xotin-qizlar masalasi ..9

1.1. Mustamlaka Turkistonda xotin-qizlar ijtimoiy muammolarini hal etish yo'lida amalga oshirilgan chora-tadbirlar..... 9

1.2. Turkistonda xotin – qizlar maorifi masalasi va uni hal etishda amalga oshirilgan ishlar..... 23

1.3. Turkiston xotin-qizlari va “Hujum” harakati: maqsadlari va oqibatlarlari34

II bob. Sovet hukumatining Turkistonda bolalar masalasidagi siyosati: muammolar va yechimlar..... 47

2.1. Sovet hokimiyatining bolalar muammosini hal etish borasidagi siyosati va uning mohiyati..... 47

2.2. Rossiyadan Turkistonga bolalar evakuasiyasi va unadan ko'zlangan maqsadlar..... 50

2.3. Turkistonda bolalar ocharchiligining bartaraf etilishi..... 56

Xulosa..... 65

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati..... 67

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng tarixiy haqiqatni tiklash va haqqoniy yoritish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Prezidentimiz I.Karimov tarixiy haqiqatni tiklashga ommaning e'tiborini tortib “Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g‘oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim”¹ –deya ta'kidlagan edi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Respublikaizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilinishi, ularga imtiyozlar berilishi yuksak e'tibordan dalolat edi. 1998 yilni “Oila yili”, 1999 yilni “Ayollar yili”, 2000 yilni “Sog‘lom avlod yili” deb e'lon qilinishi, ijodkor qizlar mehnatini munosib taqdirlash maqsadida Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etilishi hamda 2004 yil 25 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi “PF-34/34 sonli² farmonini qabul qilinishi xotin-qizlarning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtiroklarini ta'minlash uchun asos yaratdi.

Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik sharoitida ayollarning jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lishini ta'kidlab, «...avvalo onalarimiz, opa-singillarimiz, umr yo‘ldoshlarimiz, qizlarimizning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini yanada oshirish, izzat-ikromini joyiga qo‘yish, ularning og‘irini yengil qilish, davlatimiz, hukumatimiz, joylardagi mahalliy hokimliklar, keng jamoatchilikning asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim³», degan edi.

Vatanimizda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni masalasi tarixning ko‘plab davrlarida dolzarb muammolardan biri sifatida qarab kelingan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston bosib olingach, mustamlakachilik tartibotini o‘rnatish jarayonida o‘lka aholisini ruslashtirish asosiy strategik masala sifatida qaraldi.

Xotin-qizlar huquqi masalasi sovet davrida ham davlatning asosiy muammolaridan biri sanalib kelgan. Sovet davlatining ayrim jihatlarida mahalliy aholining mentaliteti va milliy qadriyatlarini hisobga olmay amalga oshirgan ishlari xalqimiz boshiga qora kunlarni solinishiga olib keldi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki yillardan xotin-qizlarni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jalb etish borasida amalga oshirilgan ishlar, ular orasida savodsizlikni tugatish, paranji tashlash (“Hujum”) kampaniyasining amalga oshirilishi shular jumlasidandir.

1875-1930 yillardagi Turkistonda xotin-qizlar va bolalar masalasi hozirga qadar kam o‘rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Mavzuning dolzarbliligi o‘zbek xotin qizlarining ko‘rsatib o‘tilgan davrdagi ijtimoiy – siyosiy hayotda tutgan o‘rnini ochib berish, ular bosib o‘tgan og‘ir va ayanchli taqdirlarga to‘la turmushning murakkabliklarini ko‘rsatib o‘tish hamda xulosalar chiqarishdan iboratdir.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Mavzu yuzasidan e'lon qilingan ishlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Mustabid sovet tuzumi davrida yozilgan asarlar.
2. Mustaqillik yillarida e'lon qilingan adabiyotlar, ilmiy maqolalar.

Birinchi guruh adabiyotlarini tahlil qilish jarayonida ularning hukmron mafkura ta'siri ostida Sharq ayollariga ozodlik “ulug‘ oktyabr inqilobi”dan so‘ng berilganligi, ungacha musulmon ayollari haq-huquqsiz, savodsiz bo‘lganligi haqidagi g‘oyalar ilgari surilganligini

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7 жилд. -Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 385.

² Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004, № 18, - Б. 19-21.

³ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7 жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1999. - Б. 256.

ko‘rish mumkin. Ular jumlasiga L.Azizzoda, R.Aminova, N.Axtamova, K.Oqilov, L.Abbasova, V.Chebotaryova, X.Shukurova asarlarini kiritish mumkin⁴.

Birinchi guruhga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda Turkiston xotin-qizlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy turmush tarzi va jamiyatdagi tutgan o‘rniga mustamlaka harakteri nuqtai nazaridan baho berilgan. Ularda obyektiv tarzda Rossiya imperiyasi davrida Turkiston xotin-qizlarining jamiyat hayotidagi faoliyati past darajada ekanligi qayd etilsa-da, xotin-qizlarni jamiyat hayotiga tortish masalasida milliy o‘zlik, o‘zbek ma‘naviyati masalasida kommunistik mafkura hukmronligi yanada mustahkamlangan. Bunday asarlar sirasiga X.T.Tursunov, R.A.Radjabova, M. Jo‘raev, N.Rasulova, R.Fayzieva va boshqa⁵larning asarlarini ham kiritish mumkin.

O‘zbekiston milliy mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng xotin-qizlarning jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari uchun katta zamin hozirlandi. Ayni paytda ularning jamiyat hayotidagi teng huquqli faoliyatlari huquqiy asoslarga ega bo‘ldi. Bu sharoitda ham o‘zbek xotin-qizlarining sovet davridagi masalasi tarixini xolisona yoritishga urinishlar bo‘ldi. O‘tkazilgan ilmiy anjumanlar, matbuotda e‘lon qilingan ilmiy maqolalar, ayollar masalasida yozilgan publitsistik asarlarda mustabid sovet davridagi xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoriga doir qimmatli ma‘lumotlar jamoatchilik e‘tiboriga havola etildi⁶.

Ikkinchi guruhga mansub mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlarda Turkiston ayollarining XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘rni o‘zining ob‘ektiv bahosini topdi. Bu adabiyotlarda Turkiston ayollarining maorif va ta‘lim jarayonidagi, savodsizlikni tugatish ishlaridagi ishtiroki, “Hujum” harakatiga ayollarning munosaati masalalari chuqur tahlillar orqali ilmiy xulosalangan. Bu adabiyotlar qatoriga D.A.Alimova, U.Qoraboev, X.Shayxova, M.Nurmatova, B.Qosimov, A. Eshmurodov va boshqa⁷larning asarlarini kiritish mumkin.

Turkistonda bolalar masalasi va ahvoriga oid ma‘lumotlar faqat ochirchilikka oid statistik va arxiv ma‘lumotlari berilgan turli adabiyotlarda turlicha tarzda eslab o‘tilgan, xolos. Ammo, tarix fanlari doktori, professor A.N.Rasulov tomonidan yozilgan “Turkiston xalqi bag‘rikengligi” risolasi aynan Turkistonda Rossiya imperiyasi va sovet hukumati yillarida bolalar ahvoriga bag‘ishlanib, unda O‘zbekiston va Rossiya arxivlari hujjatlari asosida evakuatsiya qilingan va mahalliy bolalarning ahvoli tasvirlangan⁸.

⁴ Azizzoda L. Yangi haёт курашчилари. –Т.: Фан, 1976; Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – М: Наука, 1985; Ахтямова Н.С. Хотин-қизлар масаласи: Икки дунё, икки хил ёндашув. –Т.: Билим, 1987; Оқилов К. Аббасова Л. Ўзбекистон хотин-қизлари маданий қурилишда. –Т.: Фан, 1976; Чеботарёва В.Г. Ўзбекистон хотин қизлари янги жамиятнинг актив қурувчилари. –Т.: Билим, 1987; Шукурова Х.С. Социализм и женщина Узбекистана. –Т.: Узбекистан, 1970.

⁵Турсунов Х.Т., Дмитриева С.А.. Худжум значит наступление. – Ташкент, 1982; Жураев М., Расулова Н., Файзиева Р. Коммунистическая партия Узбекистана и работа среди женщин республики (1938-1958). – Ташкент, Узбекистан, 1982; Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Ташкент, 1975.

⁶ Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (XIX аср охири ва XX аср). – Т.: «Ijod dunyosi», 2004; Мустафаева Н. Туркiston миллий зиёлиларининг қарашларида аёлларнинг оила ва жамиятда тутган ўрни масалалари. Илмий- амалий конференция маърузалари тўплами. - Т.: Фан, 1999; Нурмухаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1993. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи // Адабий мерос. 1992, №1; Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. Т.: Фан, 1991; Шодмонова С. Туркiston хотин-қизларининг жамиятда тутган ўрни. Жамият ва бошқарув, 2006, №2; Қор кўйнида лолалар / Масъул муҳаррир Б. Шарипов, -Т.: Академия, 2001.

⁷ Алимова Д.А., Ахметова Ю. Янги ҳаёт жарчилари. – Тошкент, Фан, 1991; Қорабоев У. Аёллар байрами тарихи // Саодат, – Тошкент, 1991. – №1; Шайхова К., Назаров К. Умуминсоний кадрятлар ва маънавият камолоти. – Тошкент, Ўзбекистон, 1992; Нурматова М. Ўзбек аёли. – Тошкент, Ибн Сино нашриёти, 1994; Қосимов Б. Исмоилбей Гаспирали. – Тошкент, 1992; Сулаймонова С., Эгамбердиева Ю. Менталитет жиншин-узбекчи. // История и современность. – Ташкент, 1998; Эшмурадov А. Аёл юксалтирув башариятни // Тафаккур. – Тошкент. 1998, – № 2.

⁸ Расулов А.Н. Туркiston халқи бағрикенглиги. – Т., Yangi nashr, 2011. – 152 б.

Mavjud adabiyotlar va e'lon qilingan ishlar tahlili, ularni yagona tizimga solish, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ayollar va bolalarning ijtimoiy ahvolini xolisona tadqiq etishni talab etadi.

Magistrlik dissertasiyasining maqsad va vazifalari. Magistrlik ishining asosiy maqsadi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va sovet hukumatining Turkistonda xotin-qizlar va bolalar masalasini hal etish bo'yicha amalga oshirgan ishlarini o'rganishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagilar ustivor vazifalar sifatida belgilandi:

- Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosatida Turkiston ayollariga munosabat va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganish;
- Mustamlaka Turkistonda bolalar ahvoli va ularning mehnati bilan bog'liq jihatlarni o'rganish;
- sovet hokimiyatining dastlabki yillarida mahalliy xotin-qizlar va bolalarning ijtimoiy ahvolidagi o'zgarishlarni tahlil etish;
- Turkistonda bolsheviklarning xotin-qizlar va bolalar muammolarini hal etish yo'lidagi chora-tadbirlarini asosiy xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- Turkistonda xotin – qizlar maorifi masalasi va uni hal etishda amalga oshirilgan ishlar;
- “Hujum” harakatidan ko'zlangan asosiy maqsadlar, harakatning borish jarayoni va oqibatlarini tahlil etish.
- Sovet hokimiyatining bolalar muammosini hal etish borasidagi siyosati va uning mohiyatini ochib berish;
- Rossiyadan Turkistonga bolalar evakuasiyasi va unadan ko'zlangan Maqsadlarni ko'rsatib berish;
- Turkistonda bolalar ocharchiligining bartaraf etilishi kabi masalalarni yoritib berish.

Tadqiqotning hududiy chegarasi. Magistrlik ishi uchun hududiy chegara sifati Turkiston ASSR tarkibiga kirgan viloyatlar hududi belgilandi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Magistrlik tadqiqot ishi uchun davriy chegara sifatida 1875-1930 yillar belgilandi. Chunki, aynan shu davrda sovet hukumati Turkiston ayollarni masalasi yuzasidan milliy mentalitetga nomuvofiq ravishda ko'plab ishlarni amalga oshirgan va bu siyosat o'zining salbiy oqibatlarini o'sha davrdayoq ko'rsatgan edi. Shuningdek, bolalar muammolari bilan bog'liq masalalar ham aynan shu davrda o'z yechimini topgan edi.

Magistrlik ishining uslubiy asosi. Muammoni o'rganish jarayoni tadqiqotchi tomonidan tarixiy tadqiqotning tarixiylik, ilmiylik, davriy izchillik tamoyillariga, umuminsoniy va milliy manfaatlar, qadriyatlar uyg'unligi kabi tamoyillarga jiddiy e'tibor berildi. Shuningdek, mavzuni yoritish jarayonida tarixiy yondashuv va qiyosiy tahlil, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari asosida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

Magistrlik dissertasiyasining manbalari. Magistrlik dissertasiyasi ishining asosiy manbalari bo'lib, mustabid sovet tuzumi va mustaqillik yillarida yozilgan asarlar, matbuotda e'lon qilingan ilmiy maqolalar xizmat qildi.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertasiyasi ishining ilmiy yangiligi shundan ibratki, unda 1875-1930 yillardagi Turkiston xotin-qizlari va bolalarining ijtimoiy ahvoli, Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatining bu masaladagi siyosati adabiyotlar orqali, alohida tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus tadqiq etildi.

Magistrlik dissertasiyasining amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertasiyasi ishida keltirib o'tilgan ma'lumotlar ishonchli manbalarga asoslangan bo'lib, undan ilmiy maqolalar

yo'zish, ma'ruza matnlari tayyorlash, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining tarkibiy tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi ishi kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA XOTIN-QIZLAR MASALASI

1.1. Mustamlaka Turkistonda xotin-qizlar ijtimoiy muammolarini hal etish yoʻlida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

Ayol mavqei masalasi insoniyat tarixida eng munozarali masala hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holatiga koʻra turlicha talqin qilinadi. Bundan qatʼiy nazar jamiyatning yuksalishida ayollarning tutgan oʻrni naqadar kuchli ekanligiga tarixning oʻzi guvohlik beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida parokandalikdan foydalangan chor Rossiyasi Oʻrta Osiyoni istilo qildi. Rus bosqinchilarini asl maqsadlari faqatgina oʻz yerlarini kengaytirish yoki oʻz xalqining oʻsib borayotgan moddiy ehtiyojini shu mamlakat boyliklari hisobidan qondirish emas, balki asrlar davomida shuhrat topib kelgan bu oʻlka xalqlarining maʼnaviy boyliklarini ham talon-taroj etib, ularni qul qilish, oʻzlariga boʻysundirish, ular ustidan hukmronlik yurgizish edi.

Ham rus amaldorlari, ham mahalliy toʻralar tomonidan ezilgan, xoʻrlangan xalq juda qiyin ahvolga tushib qoldi, bu bosqinchilar tomonidan keyinchalik amalga oshirilajak ayyorona siyosat uchun zamin hozirladi.

Bu davrda ayniqsa xotin qizlarga nisbatan jabr-zulm, zoʻravonlik kuchaydi. Ular deyarli barcha insoniyat huquqlaridan mahrum etila boshladi. Qizlarni erta turmushga berish, turmush qurishda ularning roziligini olmay sotish, ularga quldek munosabatda boʻlish avjiga chiqdi. Bunday xoʻrlikka va adolatsizlikka uzoq vaqt chidash qiyin edi⁹.

Koʻplab dalillarning guvohlik berishicha qiz bolaga birinchi oʻrinda yaxshi pulga sotiladigan mahsulotdek qaralgan. Qiz bola erga berilganda olinadigan qalin puli qoʻy, sigir yoki qimmatbaho narsa bilan baholangan.

Oilada ham erkak kishining mavqeidan ayol kishining mavqei bir necha barobar past turgan. Musulmon ayoli otasiga, eriga boʻysunishga majbur boʻlgan. Ular ommaviy hayotdan ajratib qoʻyilgan.

Xiva xonligi tarixiga oid hujjatlarda aytilishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida aholining mol-mulk boʻyicha masalalarini maxsus qozikalonlar hal qilgan. Nikoh yoshi esa shariat boʻyicha 12 yosh qilib belgilangan edi. Bu davrdagi yana bir ijtimoiy tengsizlikning belgisi sifatida dafn marosimida ayollarning qabri erkaklarnikidan chuqurroq boʻlishi lozim edi. Buning maʼnosi ayollarga hurmat emas, aksincha ularni kamsitish edi.

Bolsheviklar hukmronligining dastlabki yillaridanoq, mahalliy xotin-qizlarni sovet hukumatining qoʻllab-quvvatlovchi tarafdorlarini tayyorlashni maqsad qildi. Mazkur maqsadni amalga oshirish yoʻlida ularni ongida mavjud tuzumga muxabbat hissini shakllantirish uchun mahalliy ayollar orasida targʻibot-tashviqot ishlarini olib boruvchi xotin-qizlar boʻlimlarini tashkil etildi. Bu boʻlimlar xotin-qizlar orasida targʻibot ishlarini olib borish bilan birga ularni tezroq “yuzlarni ochish” orqali xotin-qizlar ijtimoiy faolliklarini oshirishni koʻzda tutdi. Hukmron siyosiy mafkura mahalliy millatning madaniy merosi va milliy qadriyatlarini hisobga olmagan holda, ularning ongida yangi proletar madaniyatni shakllantirish uchun kurash olib bordi. Proletar madaniyati shakllantirish yoʻlida instruktorlik kurslari tashkil etildi.

1918 yil 6 sentyabrida Turkiston ASSR Xalq maorifi komissarligi kengashi aholiga instruktorlik madaniy yordam kurslarini tashkil etish loyixasi tasdiqladi. Xalq maorifi komissarligining ishchi dehqonlarga madaniy yordam instruktorlik kurslari ochish toʻgʻrisidagi 1919 yil 2 yanvardagi nizomiga koʻra, mazkur sanadan boshlab Xalq maorifi komissarligida 3 oylik proletariyatga madaniy yordam koʻrsatish instruktorlik kurslari ochildi. Bu kurslarning asosiy maqsadi, joylarda madaniy-maʼrifiy muassasalarda ish olib boruvchi malakali instruktorlarni tayyorlashdan iborat boʻlgan. Kurslarga xalq oʻqituvchilari va 18 yoshdan kam

⁹ Туркистон хотин-қизлари // Тафаккур. – Тошкент, 1999. – № 2, – В. 45.

bo'lmagan o'rta ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolar qabul qilingan. Kursni tamomlaganlar tuman va viloyat instruktorlari vazifasida 1 yilgacha xizmat qilishlari mumkinligi qayd etilgan.

Xotin-qizlar orasidagi targ'ibot ishlari olib borishda instrutorlarning xizmatlari katta bo'lgan. O'zbekistonga markaz tomonidan yuborilgan dastlabki instruktorlar orasida Lukiya Shumilova ham bo'lgan. 1919 yil kuzida o'lka komiteti qoshida I.Finkelshteyn rahbarligida xotin-qizlar bo'limi tashkil topdi. Unda birinchi instruktor bo'lib L.Shumilova tayinlandi. Shu yilning dekabrda xotin-qizlar bo'limining filiali Toshkent shahrida ham ochildi. Bo'lim faoliyatida Yusupova, Burnasheva, Xusanbaeva, Karimovalar faol xizmat ko'rsatishdi. 1918 yildan "Ishtirokiyun" "Kommunist" gazetasi nashrdan chiqqa boshladi. Xotin-qizlar bo'limining faoliyati mahalliy millat tilidagi "Ishtirokiyun", "Qizil Bayroq", "Turkiston", "Ozod Buxoro", "Maorif", "Inqilob quyoshi" va boshqa matbuot sahifalarida berib borildi¹⁰.

Xotin-qizlar bo'limining asosiy vakolatiga mahalliy ayollar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borib, xotin-qizlarni sovet davlati qurilishiga jalb etishdan iborat edi. Xotin-qizlar bo'limi mudir, yo'riqchi, xay'at a'zolariga kasaba uyushmasi, kamsomol tashkiloti, partiya qo'mitasi, qo'shchi ittifoqidan va vakil ayollar hamda tashviqotchi ayollardan bo'lib 7 kishidan iborat bo'lgan¹¹.

1919 yil oxiri va 1920 yil boshida dastlab Zakaspiy va Samarqand viloyatlariga xotin-qizlar bo'limlarini tashkil etish hamda ularga amaliy yordam berish maqsadida, instruktorlar yuborilgan. Albatta bunday instruktorlarning ko'pchilik qismi tatar ayollardan iborat bo'lgan. Shunday qatorida L.Shumilova ham 1919 yil dekabr oyida safar qilgan¹². L.Shumilova (1873-1939) 1906 yildan partiya a'zosi bo'lib, taniqli bolshevik N.Shumilovning rafiqasi edi. Turkiston o'lkasi ayollari orasida yuqori obro'ga ega bo'lgan. Uni turli hududlarga xotin-qizlar orasida targ'ibot ishlarini yuritishda amaliy yordamchi sifatida yuborishlarini so'rab ko'plab telegramma va xatlar yozilgan¹³.

Xotin-qizlar bo'limida vakila ayollar ham faoliyat ko'rsatib, ular alohida mavqyega ega bo'lgan. Ularning vakolatiga maxsus birlashmalar tashkil etish, jamoat ishlari, umumiy yig'ilishlar uyushtirish, maxsus mavsumiy ishlar, "ko'chma qizil o'tovlar" erkaklar o'rtasida ish olib borish, "qo'shchi ittifoqi" savodsizlikni tugatish maktablari, amaliyotchi vakil ayollar, faollar orqali ish olib borish kabilarni tashkil etgan¹⁴.

Targ'ibotchi ayollar davlat tashkilotlarida faoliyat yuritib, jamoat ishlarida faollik bilan qatnashgalar. Frontga yordam va Volgabo'yi ochlariga yordam ko'rsatish ishlarida va mahallalarda shanbaliklar uyushtirib, bolalar uylari va internatlarga borib ommaviy xashar ishlarini olib borilishida tashabbus ko'rsatganlar. Xususan, yangi Buxoroda shunday dastlabki targ'ibotchi ayollar rus va tatar xotin-qizlari - M. Vasileva, Makryukova, M. Babushkina va Maryam Sharafutdinovalar faoliyat yuritganlar bo'lgan¹⁵.

XX asrning 20-yillarida Turkistondagi xotin-qizlar bo'limlari o'zlarining faolligi bilan ajralib turardilar. Ta'kidlash joizki, xotin-qizlar bo'limlari har doim ham ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy holda siyosat yurgizmagan. Mazkur jarayonda xotin-qizlar bo'limlari siyosiy hukmron firqaning siyosatiga mutanosib ravishda ish olib borganlar¹⁶.

Dastlabki instruktorlar erkaklardan iborat bo'lib, ayollar yordamchi vazifasida faoliyat ko'rsatib kelganlar. L.Shumilova xotin-qizlar orasida targ'ibot ishlarini olib borgan dastlabki instruktorlardan edi. Xotin-qizlar orasida olib borilgan ishlar haqida u o'z xotiralarida shunday

¹⁰ Алимова Д. Решение женского вопроса в Узбекистане. Т., изд. «Фан», 1987, – С. 14-15

¹¹ Абдуллаева Я. –Б.109

¹² Шукурова . Социализм и женщина Узбекистана. Т., Изд-во Узбекистан, 1970, – С. 73-74

¹³ Шукурова . Социализм и женщина Узбекистана. – Т., Изд-во Узбекистан, 1970, – С. 74

¹⁴ Абдуллаева Я. –Б.109

¹⁵ Аминова Р. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Т., Из.во. Фан, 1975, – С. . 120

¹⁶ Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари(20-30 йиллар. тажриба ва оқибатлар) тарих.фан.ном.дис., Т., 1998, – Б. 72

yozadi: “1919 yil Toshkentdagi kompartiya tashkiloti Moskvadan xotin-qizlar orasida ish olib borish uchun maxsus bir kishini ajratish to‘g‘risida buyruq kelgandan keyin mazkur vazifaga dastlab, Yakomenko qo‘yilgan unga yordamchi qilib men tayinlanganman. 1919 yil Finkelshteyn mahalliy ayollar ishtirokida mitinglar uyushtirar va ularda nutq so‘zlardi. Shunday mitinglardan birida ilk marotaba nutq so‘zlash menga topshirildi. Mitingda 200 dan ortiq xotin-qizlar yig‘ilgan bo‘lib, nutq so‘zlab bo‘lganimdan keyin ular bilan ziyolilarning hozirda va o‘tmishdagi tutgan o‘rnolari haqida suhbat olib bordim”.

Xotin-qizlar orasidagi targ‘ibot ishlarini olib boruvchilarning dastlabki vakillari yevropa va rus millatiga mansub ayollarni tashkil etgan. Tabiiyki, ular mahalliy millat tilini bilmaganlar. Dastlabki, instruktorlardan biri Marchenkoning ta’kidlashicha, mahalliy millat xotin-qizlari orasida targ‘ibot ishlarini olib borishda ularga tatar ayollari katta yordam berganlar. Dastlab ular tatar ayoli M.Yusupova bilan tanishganlar. Uning o‘zi mahalliy millat xotin-qizlarining ahvoli haqida so‘zlab, ularning qadriyatlarini va urf-odatlarini batafsil tushuntirib bergan. Bundan keyin yana 2-3 nafar tatar ayollari targ‘ibot guruhiga kelib qo‘shilgan. Ular A.Xusanbaeva, F.Redkina, M.Karimovalar edi.

Xotin-qizlar orasida targ‘ibot ishlarini dastlabki bosqichida tatar ayollari tashabbus ko‘rsatdilar. Ular mahalliy millat xotin-qizlari bilan muloqotda bo‘lish va ularga yangi hukumatning siyosatini tushuntirish ishlarini olib borganlar. Xotin-qizlar bo‘limi dastlab, Namanganda tashkil etilgan bo‘lib, 1919 yil 21 iyulida uning tashabbusi bilan 200 yaqin mahalliy xotin-qizlar ishtirok etgan yig‘ilish o‘tkazilgan. Majlisda so‘zga chiqqan bo‘lim a’zolari sovet hokimiyati oldida turgan vazifalar hamda musulmon xotin-qizlarining yevropalik ayollardan madaniy va ma’rifiy sohada ma’lum darajada orqada ekanliklari haqida tushuntirish ishlarini olib borganlar. Notiqalar o‘z chiqishlarini yakunlagach, tinglovchilarga tug‘ilgan savollar bo‘yicha so‘zga chiqish imkoniyati berilgan. Dastlab sukunat saqlanib, keyin so‘zga chiquvchi va savol beruvchilarning soni ortib ketgan. Majlisda to‘rt kishidan iborat hay’at tuzilib, xotin-qizlar bo‘limiga rais etib tatar ayoli A.Og‘unova saylangan.

Tez orada Namangandagi kabi Turkiston o‘lkasining barcha hududlarida bunday bo‘limlar tashkil etilib ish boshlashiga umid bog‘landi. Musulmon xotin-qizlarini ham ijtimoiy faolliklari oshib, jamiyatda o‘z o‘rinlarini egallashlari muqarrar edi¹⁷. Bunday bo‘limlar keyinchalik Turkiston o‘lkasining barcha hududlarida tashkil topgan bo‘lib, ular xotin-qizlar orasida o‘z tashviqot ishlarini olib borganlar, hamda jamiyatdagi ijtimoiy faolliklarini ortishida asosiy omillardan biri bo‘ldi.

Xotin-qizlar bo‘limi tashkilotchilar orqali o‘z ishini boshlab, ma’lum vaqtdan keyin vakillarining soni ortib ketib boshqarish qiyinlashib qolganligi bois, ishchi dehqon bo‘limi tashkil etilib, uning qoshida musulmon seksiyasini faoliyat yurita boshladi. Dastlab mazkur seksiyaga G.Baxtiyarova rahbarlik qildi¹⁸. G.Baxtiyarova 1920 yil avgustida turmush o‘rtog‘i D.Baxtiyarov bilan Tataristonning Spassk uezdidan Turkistonga o‘qituvchi tariqasida yuborilgan edi. Baxtiyarovlar oilasi Toshkentga kelib, D.Baxtiyarov Farg‘ona viloyatida tashkilotchi-o‘qituvchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, G.Baxtiyarova viloyat xotin-qizlar bo‘limida ishladi¹⁹.

1919 yil noyabr oyida partiya qo‘mitalari qoshida xotin-qizlar seksiyalari tashkil topdi. Mazkur seksiyaga dastlab mahalliy xotin-qizlar orasida tashviqot ishlarini olib borishda turli xil yo‘l va uslublarni ishlab chiqqan Z.Burnasheva hamda Z.Baimbetovalar rahbarlik qildilar²⁰. Mahalliy ayollar orasida targ‘ibot ishlarini olib borishda va ulardan dastlabki muallimalarni

¹⁷ Хотин-қиз дунёсида // Иштирокиюн, 1919, 21 июл

¹⁸ За пять лет. Сборник по вопросам работы Коммунистической партии среди женщин Средней Азии. – М, 1925, – С. 122

¹⁹ Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар (1917-24 йиллар) тарих.фон.док. дисс., – Т., 2005. – Б. 307

²⁰ Биктемирова Т, Хамитбаева Н. Татарки просветительницы. Актуальное национально-культурное обозрение «Анко» 3, 2001. <http://www.tataroved.ru/institut/center/publ/2/>

tarbiyalashda uning katta xizmatlari bo'lgan. Z.Burnasheva rahbarligida mahalliy xotin-qizlar uchun gazetalarda maxsus rukn tashkil etilgan.

O'zbekistondagi ayollari masalasi bilan shug'ullangan Shukurovaning xotin-qizlar bo'limi ishchilarining dastlabki faoliyati haqida shunday yozadi: "Xotin-qizlar bo'limlari ishchilari paranjilarni kiyib olgan holda mehmonlar ko'rinishida qishloq va shaharlarda bo'lishgan va mahalliy ayollar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borganlar. Ular suhbatlarida sevet tuzumining ishchi va dehqonlarga yaratib bergan sharoitlari haqida so'zlab yangi hukumatga bo'lgan ularning muxabbatini oshirishda asasiy rol o'ynaganlar. Tashviqotchilar avval mahalliy ayollar orasidan o'zlariga sodiq kishilarni tayyorlab ularni yordamchi qilib olganlar. Yordamchi ayollar boshqa mahalliy ayollarni to'plash va ularga tushuntirish ishlarini olib borishda xotin-qizlar bo'limi ishchilarga ko'mak berishgan. Shu tariqa tashviqot ishlari olib borilgan²¹.

Dastlabki targ'ibot ishlarida qatnashgan M. Sayfutdinova "Biz Lenin bilan qanday uchrashdik" deb nomlangan maqolasida shunday yozadi: "1920 yil Mokvada bo'ladigan Sharq xotin-qizlarining s'ezdida mahalliy xotin-qizlari ham ishtirok etishi lozim edi. Samarqand viloyati xotin-qizlar bo'limi rahbari M.Xairova bilan men mahalliy ayollardan vakilalar tayyorlash maqsadida 3-4 kun davomida mahallalarda yurib olib borgan ishlarimiz samarasi o'laroq, 4 nafar o'zbek hamda 4 nafar tatar qizlarini o'zimiz tomonga og'dirib olishga muvaffaq bo'ldik. 4 nafar o'zbek qizlari va men Moskvaga Sharq xotin-qizlari s'ezdiga jo'nab ketdik. Moskvada bizni oldimizga Lenin va Krupskaya kelishdi. Lenin biz bilan bo'lgan suhbat chog'ida Rossiya va kapitalistik mamlakatlardagi xotin-qizlarning ahvoli haqidagi fikrlarini bildirib, sovet hukumati xotin-qizlarni ozod etish borasida qanday ishlarni amalga oshirishni mo'ljallanayotganligini aytib berdi".

Xotin-qizlar orasidagi targ'ibot ishlari katta qiyinchiliklar va qurbonlar evaziga amalga oshirildi. Xotin-qizlar orasidagi targ'ibot-tashviqot ishlarini faollardan bo'lgan muallima O.Valieva o'z xotiralarida shunday yozadi: "Mutaassiblar tomonidan targ'ibotchilarni toshbo'ron qilingan, itlarga talatilgan va o'ldirilgan. 1922 yili Lag'mon qishlog'ida 15 yoshida Chistopol pedagogika texnikumini tamomlab, Turkistonga maktabda ishlash uchun yuborilgan 16 yoshli muallima Jamila Yumaeva yaxshiyona o'ldirilgan²².

Turkiston markaziy ijroya qo'mitasining "Izvestiya" gazetasida 1919 yil 3 dekabrda sonida "Ishchi ayol sahafasi" nomli rukn tashkil etilib, unda xotin-qizlar harakati tarixi, xotin-qizlar bo'limining xisobotlari muntazam berib borilgan. Xotin-qizlar bo'limi barcha ayollarga "Izvestiya" va "Ishtirokiyun" gazetalarini tahririyatiga ularning turmush tarzlari aks ettirilgan hamda paranji tashlash harakatiga bag'ishlangan maqolalar yozib yuborishni taklifi bilan chiqqan.

Ma'lum vaqtdan keyin musulmon mutaxassis ayollarning soni kamayib ketganligi sababli mazkur seksiya faoliyati suslasha boshladi. Musulmon seksiyasiga M.Safarovaning kelishi bilan bo'limning ish faoliyati yana jonlana boshladi. M.Safarova rahbarligida mahalliy xotin-qizlar uchun onalikni saqlash borasida qilingan ishlardan biri "Onalar uyi" tashkil etilganligi bo'ldi.

Ishchi ayol bo'limi s'ezdlar o'tkazish va uning qarorlarini tatbiq etishda yetakchi tashkilotlardan hisoblangan. Turkiston ayollarining birinchi s'ezdi 1920 yil 15 mayda o'z ishini boshlab, unda 120 nafar delegat ishtirok etgan. Ulardan 88 nafari rus, 1 nafar turkman, 15 nafari tatar va 3 nafari qirg'iz ayollaridan iborat edi²³.

Musulmon seksiyasi faoliyatida tatar ayollarida muhim rol o'ynaganlar. Ularning mahalliy ayollar orasida olib borgan targ'ibot-tashviqot ishlari natijasida mahalliy millat xotin-qizlarining ijtimoiy faolliklari oshib borgan. Masalan, 1921 yil yanvarda Xotin-qizlar bo'limlari rahbarlari va musulmon seksiyalari qoshidagi ishchi va dehqon ayollari bo'limlari rahbarlarining

²¹Шукурова Х.Социализм и женщина Узбекистана. – Т., Узбекистан,1970, – С. . 124

²² Биктемирова Т, Хамитбаева Н. Актуальное национально-культурное обозрение «Анко» 3, 2001. <http://www.tataroved.ru/institut/center/publ/2/>

²³Шукурова Х.Социализм и женщина Узбекистана. Т., Узбекистан,1970, – С. .84

birinchi o'lka yig'ilishi bo'lib o'tgan. Yig'ilishda 89 nafar ishtirokchi qatnashib, ulardan 36 nafari musulmon ayollardan iborat edi. Musulmon ayollar orasida 16 nafari o'zbek, 5 nafari tatar, 5 nafari fors, 1 nafar osetin, 5 nafar Buxoro yahudiy ayollaridan iborat bo'lgan. Yig'ilishda mahalliy ayollar orasida madaniy-oqartiruv ishlarini yanada yaxshilash va onalik va bolalikni saqlash masalalari ko'rilgan²⁴.

Xotin-qizlar bo'limlari qoshidagi mahalliy ayollar uchun ochilgan yozgi qisqa muddatli va bir yillik kurslar ochilgan. Bu kurslar ishini tashkil etishda M.Baxtiyorova, M.Ismoilova, Z.Burnasheva, A.Yausheva, S.Axtamova, Sh.Xaliullina, I.Maxammedova, G.Alieva, S.yenikeeva va boshqalar faol ishtirok etganlar. Bularidan tashqari xotin-qizlar bilan birgalikda yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazib, ayollar huquqlariga oid sovet qonunlarini targ'ib qilish va ularga amal qilinishiga erishilishida jonbozlik ko'rsatganlar²⁵.

1920 yil yoz oylaridan boshlab xotin-qizlari bo'limining ishlari butun Turkiston bo'ylab keng olib borilgan. XX asrning 20-yillaridan xotin-qizlar bo'limlarining tashabbusi bilan xotin-qizlar klublari tashkil etilgan. Mazkur klublar mahalliy ayollarni ommaviy to'planadigan va ularni madaniy saviyasini oshiradigan maskan bo'lishi ko'zda tutilgan edi.

XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda xotin-qizlar bo'limlari ayollarni ijtimoiy-madaniy hayotga jalb etishning turli yo'llarini ishlab chiqish, mavjud tajribalarni umumlashtirishga ma'lum ahamiyat berdilar²⁶. Ushbu klublarda amalga oshirilgan siyosiy-ommaviy ishlarning mazmuni klublarning tashviqot-targ'ibot borasidagi faoliyatida, savodsizlikni bitirishdagi, ommaviy-siyosiy tadbirlardagi umumittifoq va milliy bayramlarni tayyorlashdagi va o'tkazishdagi ishtirokida o'z ifodasini topdi. Klublar tashkil etilish bilanoq ular oldiga sof siyosiy maqsadlar qo'yildi. Turkistonda xotin-qizlar klublarini ochish masalasi 1920 yil sentyabr oyida Boku shahrida bo'lib o'tgan sharq xalqlarining birinchi quriltoyida ko'rildi. 55 delegat ishtirok etgan ushbu anjumanda Turkistonda kechiktirmasdan xotin-qizlar klublari ochishga kelishib olindi.

XX asrning 20-yillarda O'zbekistondagi xotin-qizlar klublari xotin-qizlar huquqiga oid ishlarni olib bordilar. Ya'ni ularning diqqat markazida qalin puli olish, ko'pxotinlilikka qarshi kurash ishlari turdi. Shu bilan birga madaniy-oqartuv ishlarini kengaytirish masalalari bilan shug'ullandilar. Xotin-qizlari klublari qoshida savodsizlikni tugatish maktablari va bu maktablar tarkibida kurslar ham tashkil etilgan.

1920 yilda mazkur maktab va kurslarni yangi Toshkentda 40 nafar o'zbek, qozoq va tatar qizlari tugatishgan. 1922 yildan xotin-qizlar uchun maktablar ochilishiga katta e'tibor berilgan. Biroq, mablag'ning yetarli darajada emasligi mazkur maktablar faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilgan. Shu yilning oxirida xotin-qizlar maktablarida 275 nafar mahalliy millat ayollari ta'lim olgan. Xotin-qizlar bo'limlarining faoliyatida ishchi ayollari konferensiyalarining o'rni katta bo'lgan. Mazkur konferensiyalarda targ'ibot olib borish ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida chet el delegatlarini ishtiroki katta natija berishini oldindan bilgan hukmron partiya ular yordamida mahalliy xotin-qizlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga katta e'tiborni qaratgan.

Masalan, 1920 yil Toshkent shahrida ishchi ayollar konferensiyasi bo'lib o'tgan, rus va musulmon ayollar birgalikda qanday ishlayotganliklari bilib yaqindan tanishish maqsadida, Toshkentga kelgan hind inqilobchilari konferensiyaga tashrif buyurishgan. Musulon ayollar ularni ko'rishlari bilan yuzlariga paranjilari tashlab olganlar. Hind inqilobchilaridan bo'lgan Pashl ayollarni parangi kiyishlarini mullalarning o'zlari o'ylab topgan xurofot ekanligi unga qarshi kurashish lozimligi haqida so'z yuritib, taraqqiyotning yuqori darajasiga erishgan musulmonlardan bo'lgan tatarlar o'z yollariga parangi kiyishlarga yo'l qo'ymasliklari haqida

²⁴ Шукурова Х. Социализм и женщина Узбекистана. – Т., 1970, – С. . 97

²⁵ Биктемирова Т, Хамитбаева Н. Актуальное национально-культурное обозрение «Анко» 3, 2001. <http://www.tataroved.ru/institut/center/publ/2/>

²⁶ Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари.(20-30 йиллар. тажриба ва оқибатлар) тарих.фан.ном..дисс... – Т., 1998, – Б.73

gapirgan. Hind inqilobchisining chaqirig'iga bir necha musulmon ayollar javob qaytarishdi. Bir ayol rus tilida bilganicha paranjini asta-sekinlik bilan tashlash haqida so'zlagan. So'zga chiquvchilardan biri Qrim frontidan kelgan Ismailova fronta soldatlar sifatidagi ayollar oldingi o'rinlarda turib dushmanga qarshi kurashda ishtirok etayotganliklari haqida gapirgan.

Ishchi va dehqon bo'limi doimo tag'rg'ibot ishlari yuzasidan muhim qarorlar qabul qilgan va ularni bajarilishini nazorat qilgan. 1921 yil "oktyabr inqilobi"ning 4 yilligi bayrami munosabati bilan "Turon" teatrida tantanali yig'ilish bo'lib, unda markaziy xotin-qizlar bo'limi rahbari rahbari Z.Burnasheva nutq so'zlab mahalliy xotin-qizlarga sovet hukumatining olib borayotgan siyosati bo'yicha tushunchalar bergan²⁷.

1922 yildan boshlab, Turkistonning barcha hududlarida xotin-qizlar klublari tashkil etilgan. Xotin-qizlar klublarining soni uning ishtirokchilarining soniga nomutanosib ravishda bo'lgan. Xususan, 1925 yilda xotin-qizlar klublarida 1395 kishi faoliyat yuritgan. Bu respublikadagi xotin-qizlarni ommaviy ravishda a'zo bo'lmaganligini ko'rsatadi. Namangandagi xotin-qizlar klubida esa 2-3 oylab biror tadbir o'tkazilmagan²⁸. 1923 yildan xotin-qizlar bo'limlari mahalliy millat xotin-qizlarini o'quv yurtlariga jalb etishda e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi. Masalan, 1923 yil xotin-qizlar bo'limlari orqali xotin-qizlar institutlariga, ishchi fakultetlariga, feldsherlik va akusherlik kurslariga 400 nafar mahalliy millat xotin-qizlari o'qish uchun yuborilgan. O'lka bo'ylab mahalliy millat ayollari uchun 12 ta savodsizlikni tugatish maktablari faoliyat yuritgan.

Xotin-qizlar orasida targ'ibot ishlarini olib borilishida qizil choyxonalar ham alohida o'rin tutgan. Ularda yig'ilishlar o'tkazilib, tashviqot ishlari olib borilgan. Masalan, Buxoro viloyati xotin-bo'limining rahbari Zuhra Baimbetovaning ta'kidlashicha, qizil choyxonalarda xotin-qizlar 10 kunda bir marta yig'ilib, siyosiy o'qish, kitoblar mutolaa qilish va radio eshitish bilan mashg'ul bo'lganlar. Maxsus xotin-qizlar choyxonalari ham ochilib, uning qoshida siyosiy to'garak va savodsizlikni tugatish maktablari tashkil etilgan²⁹.

Savodsizlikni tugatish maktablarining olib borgan faoliyati natijasida o'zbek xotin-qizlari orasidan ham dastlabki muallimlar yetishib chiqqan. 1924 yili 2000 ortiq o'zbek qizlari maktablarda, 342 nafar qizlar maxsus o'quv maskanlarida muallimalik qilgan³⁰.

Toshkent shahrining musulmon qismida meditsina xodimlarning kamligini xisobga olib Maryam Yakubova tashabbusi bilan hamshira va akusherlar tayyorlash kurslari ochildi³¹.

Xotin-qizlari klublarini tashkil etish va ularni mablag' bilan ta'minlashda hukmron partiya imkoniyat darajasida mablag' ajratgan. 1923 yilda bo'lib o'tgan xotin-qizlar bo'limlarining V butun Turkiston kengashi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Kengash asosiy e'tiborni xotin-qizlar orasida madaniy-oqartiruv muassasalari ishini yaxshilash, ayollar klublari sonini oshirishga qaratgan. Mazkur klublarni moddiy jihatdan ta'minlashga ham alohida e'tibor berila boshlagan. 1923 yili ushbu maqsadlar uchun 1500 so'm ajratilgan. 1924 yilda esa, yangi klublar qurilishiga davlat mablag'i ajratish yo'lga qo'yildi³².

Qoraqalpog'istonda xotin-qizlar bo'limi tashkil qilingandan boshlab, 1930 yilgacha 5 marta xotin-qizlar konferensiyalar bo'lib o'tgan. Ularning 4 tasi viloyat va 1 tasi shahar okrugi miqyosida tashkil etilgan. Konferensiyalarda xotin-qizlarning huquqiy ahvoli, partiya, komsomol, "Qo'shchi ittifoqi" va xotin-qizlar bo'limlarining ayollar o'rtasida olib borayotgan

²⁷ Шукурова Х. Социализм и женщина Узбекистана. – Т., 1970, – С. . 98

²⁸ Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар тажриба ва оқибатлар) тарих.фан.ном.дисс., – Т., 1998, – Б. 83

²⁹ Биктемирова Т. Хамитбаева Н. Татарки просветительницы. Актуальное национально-культурное обозрение «Анко» 3, 2001. <http://www.tataroved.ru/institut/center/publ/2/>

³⁰ Насырова Х. Женщины Узбекистана в борьбе за мир. Т., Госиздат УзССР, 1954, – С. . 30

³¹ Шукурова Х. Сициализм и женщина Узбекистана. – Т., 1970, – С. . –Б. 76

³² Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар тажриба ва оқибатлар) тарих.фан.ном.дисс.,–Б. 78

ishlari, xotin-qizlar hay'atlarini tuzish, qalin, ko'pxotinlilik, savodsizlikni tugatish maktablari va hokazo muammolar muhokama etilgan. Tegishli qarolar qabul etilgan³³.

1924 yilga kelib butun respublika bo'ylab xotin-qizlar maktablari tashkil etilib, mazkur maktablarning va targ'ibot ishlarining olib borilishi natijasida mahalliy ayollardan ham dastlabki rahbar ayollar yetishib chiqqan. 1924 yilda Xivada 40 o'rinli qizlar maktabi ochilgan. Katta yoshdagi ayollar uchun ham maktab mavjud bo'lgan. Xonqa va Gurlan qishloqlarida va yangi Urganchda komsomol yacheykasi mavjud bo'lib, unga 20 nafar qizlar a'zo edi. 2 nafar o'zbek ayollari 4- qurultoyda delagat edilar. Ulardan biri Abdusalomova Xorazm markaziy qo'mitasining a'zosi etib saylangan edi. Safarova va Otajonovalar dastlabki ilg'or o'zbek ayollar edilar. 1924 yili yanvarda ular Toshent shahriga kelib, o'lka xotin-qizlar bo'limlari rahbarlirning kengashida xorazmdagi ayollar orasidagi amalga oshirilgan ishlar haqida nutq so'zlaganlar.

Xotin-qizlar bo'limining mahalliy ayollar orasida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida mazkur bo'limning nashri bo'lgan "Yangi yo'l" gazetasining katta hissasi bo'lgan. 1924 yildan mazkur gazetaga talabning ortib boragligini hisobga olib, Turkiston markaziy qo'mitasi qoshidagi xotin-qizlar bo'limining rahbari Lyubimova 1924 yil 3 martdagi Turkiston kompartiyasi qoshidagi bosh bosmaxonaga yozgan arizasida, xotin-qizlar bo'limining nashri bo'lgan "Yangi yo'l" gazetasini 3-4 sonlarini bosmadan chiqarish uchun viza berishni talab qilgan.

1924 yildan mahalliy xotin-qizlar orasida madaniy-oqartuv ishlarini olib borilishiga e'tibor yanada kuchaytirilgan. Xotin-qizlar orasida tashviqot ishlarini olib borish qizg'in tusga kirgan. Xotin-qizlari klublari qizil burchaklarni ochish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, mahalliy xotin-qizlarni tezroq "ochish" va ularni ishlab chiqarishga jalb etishdan iborat bo'lgan. Ishchi ayol bo'limi qoshidagi xotin-qizlar bo'limi rahbari Lyubimova 1924 yil 5 iyuldagi Turkiston maorif siyosiy boshqarmasiga yo'llagan xatida, mahalliy xotin-qizlar orasida madaniy-oqartiruv ishlarini olib borish uchun xotin-qizlar bo'limi tarkibida viloyatlarda mahalliy ayollar uchun 5 ta klub va 50 ta qizil burchaklar tashkil etish taklifi bilan chiqqan.

1925 yildan savodsizlikka qarshi kurash ishlari avj olganligi bois, xotin-qizlar bo'limi ham mazkur ishlar faol ishtirok etgan. Xotin-qizlar bo'limi o'qituvchilarni tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash ishlarini olib borilishini nazorat qilish bilan ham shug'ullangan. RKP MQ O'rta Osiyo byurosi qoshidagi xotin-qizlar bo'limining o'zbek xotin-qizlar bilim yurtiga 1925 yil 22 may yuborgan xatida savodsizlikka qarshi kurash maktablariga o'qituvchilar tayyorlash kurslariga 567 va 2936 so'm miqdoridagi mablag' 22 maydan savodsizlikka qarshi kurash jamiyati ixtiyoriga o'tkazilganligi qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, sovet hukumati qurilishida bolsheviklarning xotin-qizlar ijtimoiy masalalariga katta e'tibor qaratish bilan birga ular orasida yangi hukumatga bo'lgan muxabbatni ortirish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga katta ahamiyat bergan. Yuqoridagi maqsadlar yo'lida targ'ibot ishlarini olib borish maqsadida, xotin-qizlar bo'limini tashkil etildi. Xotin-qizlar bo'limlari qoshida klublar tashkil etilib, ularning oldiga sof siyosiy maqsadlar qo'yildi.

Xotin-qizlar bo'limlari ishchilari tarkibida rus millatiga mansub ayollar bilan birgalikda mahalliy ayollar ham faol faoliyat yuritganlar. Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida tashkil etilgan rus gimnaziyalarida musulmon xotin-qizlari ham ta'lim olgan bo'lib, bolsheviklar hokimiyatni egallaganlaridan keyin yangi hukumat qurilishi ishlarida rus va mahalliy millat tilini yaxshi bilgan tatar ayollaridan yerli xotin-qizlarni maorifga tortish ishlarida foydalanilgan. Xotin-qizlar bo'limlari faoliyatida dastlabki targ'ibot ishlarini olib boruvchi ishchilar ham yevropa va rus millatiga mansub ayollaridan keyin tatar xotin-qizlarini tashkil etgan.

³³ Абдуллаева Я..... – Б. 114



1.2. Turkistonda xotin – qizlar maorifi masalasi va uni hal etishda amalga oshirilgan ishlar

Sovet hokimiyatining dastlabki davridanoq musulmon xotin-qizlari maorifi masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan. Mahalliy millat xotin-qizlarini maorif sohasiga tortishda hukmron siyosiy partiya ichki Rossiya musulmon (tatar) ayollaridan foydalandi. Turkistonda birinchi bor “Muslimalar jamiyati” tatar ayollari tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, unda savodsizlikni tugatish kechki kurslari ochib o‘quv ishlarini olib borish va xayriya jamiyatlari yordamida turli xil madaniy va ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish o‘lkada xotin-qizlar maorifida ma'lum darajadagi siljishlarni yuzaga kelishida muhim omillardan bo‘ldi.

Sovet hokimiyati dastlabki davrda qat'iy markazlashgan davlat qurishga moyilligi bo‘lsada, madaniy, ma'rifiy jarayonlarda ma'lum bir mustaqil faoliyat ko‘rsatishga o‘z qarshiligini bildirmadi. Bolsheviklar xotin-qizlar maorifi masalasini hal etishda savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etishga alohida e'tiborni qaratdi va ular asosan yoz oylarida faoliyat ko‘rsatdi. 1918 yil noyabr oyida Turkiston ijroya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Turkiston maktablari tuzilishi qoidasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Turli bilim yurtlari, cherkov, rus-tuzem maktablari o‘rniga 1 bosqichli maktablar, real bilim yurtlari, gimnaziyalar o‘rniga esa 2 bosqichli maktablar tashkil qilindi. 1919-1920 o‘quv yilida 801 ta 1 bosqichli va 4 ta 2 bosqichli maktablari ochildi³⁴. Xususan, Turkiston xalq universiteti Musulmon seksiyasi qoshida yoz oylari uchun mo‘ljallangan xotin-qizlar ikkinchi darajali maktablari tashkil etildi. Mazkur maktablar 1918 yilning 14 maydan 17 iyunigacha ochilib, ularning 4 tasi xotin-qizlar uchun ixtisoslashtirilgan edi. Bu maktablarda ona tili, arifmetika, gigiena, tabiatshunoslik fanlarini o‘qitish bilan birga bichish-tikish hunari ham o‘qitildi. Xotin-qizlar maktablardan biri Toshkentning Yangi shahar qismida 1918 yilning 20 mayida ochilgan. Maktabga S.yenikeeva rahbarlik qilib, unda 95 nafar o‘quvchi ta’lim olgan. Yuqoridagi maktabning ikkinchisi shaharning Beshyog‘och daxasida joylashgan bo‘lib, unga M.Ismoilova rahbarlik qilgan va unda 38 nafar xotin-qizlar tahsil olgan. Uchinchi maktab Ko‘kcha dahasida tashkil etilib, unga G.Muxammedovarahbarlik qilgan bo‘lib, unda 15 nafar xotin-qizlar o‘qigan. To‘rtinchi maktab shaharning Taxtapul dahasida ochilib, unda S.Raximova rahbarlik qilgan va unda 14 nafar xotin-qizlar ta’lim olgan.

Bu maktablarning mahalliy millat xotin-qizlar orasida mavqeyi baland bo‘lgan. Mahalliy xotin-qizlar darslarga juda katta qiziqish bilan qarab, faol ishtirok etganlar. Xalq dorilfununining Musulmon seksiyasi qoshidagi 2 darajali maktablarning yoz oylaridagi faoliyati haqidagi xisobotda 1918 yilning 17 iyulidan 15 avgustigacha tayyorlov kurslari ochilganligi, ulardan 4 tasi xotin-qizlar uchun bo‘lib, darslar muvaffaqiyatli olib borilganligi ta’kidlangan. Kurslarga mahalliy ayollarni qiziqishini katta bo‘lganligi haqida shuni keltirish joizki, Beshyog‘och maktabida talabalarga 15 kunlik muddatda maktabda o‘qish bo‘lmasligini bildirilganda, ayollar mashg‘ulotlar tanaffuslarsiz davom ettirilishini talab qilib ayrimlari ko‘z yoshi ham qilishgan.

Hukmron siyosiy rahbariyatning bunday maktablarni tashkil etishdan ko‘zlagan asl maqsadi, sho‘ro hokimiyatini mustahkamlash ishlarini mahalliy xotin-qizlar orasida ham keng targ‘ib etishdan iborat bo‘lgan.

Mavjud qulay vaziyatdan unumli foydalanish maqsadida, musulmon seksiyasi sovet hukumatining taqiq va tayziqlariga qaramasdan, mahalliy millat ayollarini 1918 yilning kuzida ochilishi mo‘ljallangan maktablarga tayyorlash ishlarini olib borgan.

Musulmon maktablariga muallimalar yetishmasligi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lgan. Mazkur masalani hal etish maqsadida, musulmon xotin-qizlari pedagogik kurslarini tashkil etish loyihasi ishlab chiqishga harakat boshlangan. 1919 yil 18 yanvardagi xalq maorifi komissarligining yig‘ilishida, kengash a'zosi Abdusattorovning musulmon xotin-qizlar kurslari

³⁴ НишонбоеваҚ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари. (20-30 йиллар тажриба ва оқибатлар).тарих фан.ном..дисс., – Т., 1998. – Б.96

haqidagi ma'ruzasi tinglangan. Kengashda Abdusattorovning loyihasi qabul qilingan. Yuqoridagi kurslar bilim yurtlari qoshida tashkil etilib, uzoq hududlardan keluvchilar uchun yotoqxonalar ham tashkil etilgan. Mazkur loyihaga muvofiq 1919 yil aprelda Toshkentda turk-musulmon xotin-qizlari bilim yurti qoshida mahalliy ayollardan o'qituvchilarni tayyorlash bir yillik kurslari ochilgan³⁵.

Turkistondagi kuchli an'anaviy diniy va milliy urf-odatlar mavjud bir sharoitda mahalliy ayollar orasidan muallimalarning yetishib chiqishi amrimahol edi. Savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilgandan so'ng uning rahbar va muallimalari rusiyzabon ayollar, yerli xalq tilini biladigan yahudiylar hamda tatar xotin-qizlaridan iborat bo'lgan. Ma'lumki, tatar qizlarining aksariyat qismi rus gimnaziyalarida ta'lim olgan bo'lib, mahalliy millat xotin-qizlarini mazkur kurslarga jalb etish ishlarida tatar ayollari hukmron mafkuraning muhim vositachisi bo'lganlar. Mahalliy ayollarni maorif sohasiga jalb etish maqsadida, maxsus maktablar, savodsizlikni tugatish kurslari joriy etilgan. Shunday maktablardan biri turk xotin-qizlar bilim yurti edi.

Xotin-qizlar bilim yurtlari qoshida pedagogik kurslar ham tashkil etilib, kurs qoshida uzoqdan kelgan talabalar uchun yotoqxonalar mavjud bo'lgan. O'lka turk pedagogik kurslarining rahbari K.N.Xeach 1919 yil 12 maydagi Xalq maorifi komissariga yozgan murojaatnomasida o'lka turk pedagogik kurslari qoshidagi yotoqxonaga talabalar va xonalar tozaligiga mas'ul bo'lgan nazoratchiga zarurat bo'lganligi bois, mazkur vazifaga yaxshi hulqligi bilan anchadan buyon tanilib kelgan M.Toirovani tayinlashni so'ragan.

Mahalliy millatning milliy qadriyatlari va an'anaviy turmush tarzini chuqurroq o'rganish va yerli xotin-qizlarni yangi hukumat qurilish ishlariga yanada kengroq jalb etish maqsadida, ularni maorifga ishlariga tez sur'atlar bilan tortishni amalga oshirish maqsadida turli xil qarorlar qabul qilindi. Sovet hukumati Turkistonda dastlab 2, 3, 4, 6, 8 oylik keyinchalik 1 va 2 yillik xotin-qizlar pedagogik kurslarini tashkil etdi. Tashkil etilgan xotin-qizlar pedagogik kurslari yakunlanib, ular faoliyati haqida matbuotda muntazam ravishda yoritib borildi.

Masalan, 1919 yil 12 may kuni Toshkentning Eski shahar qismida 8 oylik muallimlar kursida o'qish tamom bo'lib, imtihon o'tkazilgan va bitiruvchilarga shahodatnomalar berilgan. Kurs ochilgan avqtda 400 nafar xotin-qizlar o'qish uchun kirgan bo'lsada, ulardan 106 nafari shahodatnomalarini olishgan. Shundan 4 sinfgacha dars berish huquqini 43 nafar xotin-qizlar qo'lga kiritishgani qayd etilgan.

Xotin-qizlar pedagogik bilim yurti Namangan shahrida ham ta'sis etilib, mazkur bilim yurtidagi ishlarni mavffaqiyatli tashkil etish maqsadida, Toshkent shahridan malakali mutaxassislarni ishga taklif etilgan. Turkiston Xalq maorifi komissarligining 1919 yil 4 oktyabrdagi buyrug'iga ko'ra, Z.Burnasheva Namangan shahar xotin-qizlar pedagogika bilim yurtining o'qituvchisi, shu yil 6 oktyabrda I.Muxammedovani Namangan shahridagi qizlar pedagogika bilim yurtiga o'qituvchi etib tayinlangan. O'sha paytdagi Farg'ona vodiysidagi murakkab siyosiy vaziyat hukm surgan bir paytda maorif sohasining rivojlanishi sust darajada edi.

Xotin-qizlar pedagogik kurslarida qo'l mehnati ham fan sifatida o'quv dasturiga kiritilib, maxsus ustaxonalar ham tashkil etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, talabalarni ishlab chiqarishga kengroq jalb etishdan iborat bo'lgan.

Mahalliy xotin-qizlarni maorif soxasiga jalb etishdagi muhim muammolardan biri erkaklarning qarshilik qilish masalasi edi. Xalq maorifi komissarligining 1919 yil 25 oktyabrdagi kengashida 5 yillik turk xotin-qizlar pedagogik bilim yurtining nizomi tasdiqlangan. Unga ko'ra bilim yurtiga 13 yoshdan kam bo'lmagan o'qishni bilgan qizlar qabul etilishi qayd etilib, ularning o'qishiga qarshilik qilgan ota-onalar va erkaklar qattiq jazolanishi ta'kidlangan. Bu bilim yurtini tamomlaganlar bilim yurti yuborgan hududda 3 yil davomida ishlab berishlar lozim bo'lgan. Bolsheviklar mahalliy millatning urf-odatlari va milliy qadriyatlarni xisobga olmay

³⁵ Шукурова Х. Социализм и женщина Узбекистана. – Т., Узбекистан, 1970. – С. 80

qabul qilgan qarorlari ko'plab oilalarni barbod bo'lishi va o'zbek xotin-qizlarni fojiali xalok bo'lishiga olib kelgan.

1919 yil 27 oktyabrda Toshkentning Eski shahar qismidagi xotin-qizlar pedagogik kursiga kechasi 2 marta hujum uyushtirilgan. Buni nazarda tutgan holda maktab ma'muriyati ijroya qo'mitadan himoya uchun quroldan foydalanishga ruhsat berishni va binoni qo'riqlash uchun soqchilar yuborishni so'ragan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, sovet hukumati mahalliy xotin-qizlarni maorif sohasiga tortish maqsadida, turli xil yo'llardan foydalanib, boshlang'ich maktablar, xalq bilim yurtlari va xotin-qizlar maorif institutlarini tashkil etib, mazkur bilim dargohlariga ham yerli millat tilini va rus tilini biladigan tatar ayollaridan muallimlar sifatida foydalangan. Mazkur holat esa, mahalliy aholini ijtimoiy va madaniy qatlamlariga kirib borishga zamin hozirlagan. Turkistonda yangi proletar madaniyatini shakllantirish masalasini hal etish uchun madaniy-ma'rifiy ishlar bo'limi tashkil etilgan.

1919 yil 5 iyuldagi Xalq maorifi komissarligi shu yilning 10 iyulidan boshlab bolalar bog'chalari va maydonchalari rahbarlarining qayta tayyorlash qo'shimcha kurslari tashkil etilishi munosabati bilan viloyatlardan rus tilini o'rta darajada biluvchi, 20 yoshdan kam bo'lmagan, o'rta ma'lumotga ega bo'lgan tinglovchilarni tayyorlash bo'yicha maxsus qaror qabul qilgan.

Maktabgacha ta'lim kurslari keyinchalik Toshkent shahrida ham tashkil etilgan. 1920 yilning 1 yanvaridan Toshkent shahrida maktabgacha bo'lgan bolalar tarbiyachilarini tayyorlash bo'yicha kurslar ochilib, mazkur kurslar faolyati iyun oyining yarmiga qadar davom etgan.

Xotin-qizlar ta'limini tashkil etish 1920 yil 17 sentyabrda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Kengashining 118-sonli buyrug'idan so'ng yanada jonlangan. Mazkur buyruqda, savodsiz fuqarolar o'z savodlarini chiqarishga majbur ekanliklari ko'rsatib o'tilgan edi. Buyruqda mahalliy sharoitga qarab, savod chiqarishga majbur bo'lgan fuqarolarining yoshlari 8 dan 40 yoshgacha etib belgilandi³⁶. Mazkur qarorga muvofiq savodsizlikni tugatish maktablari va kurslarining ishlari yanada jonlandi.

1920 yildan maxsus maorif institutlari tashkil etildi. O'zbek xotin-qizlari uchun savodsizlikni tugatish maktablarini ochishga ham alohida e'tibor berish kuchaydi.

Turkiston ASSR Xalq komissarlari kengashining 1920 yil sentyabrdagi buyrug'iga ko'ra, maktab ta'limi va maktabgacha ta'lim soxasida yuqori darajali mutaxassislar tayyorlash maqsadida, shu yilning kuzida Toshkent shahrida quyidagi pedagogik o'quv muassasalari ochilishi ko'zda tutilgan edi.

Maorif institutlarni tashkil etishdan maqsad, o'sha davrdagi mavjud muallimlar yetishmasligi masalasini imkon qadar tezlashtirish ko'zda tutilgan edi. Turk maorif instituti tarkibida o'zbek xotin-qizlar instituti ham tashkil etilgan. Mazkur institut mahalliy ayollarni bu bilim dargohiga keng jalb etish va ulardan muallimlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan.

Mazkur institutlarda qulay o'quv binosi va o'quv qurollari yetishmasligi muammosi ham mavjud edi. 1920 yil xalq ta'limi bo'limi xodimi Shaposhnikovning bergan hisobotida o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida o'qiyotga 140 nafar talabalarining 40 nafar tatar xotin-qizlaridan iborat bo'lganligi, 13 nafar muallimlar faoliyat ko'rsatib, quv qurollari yetishmayotganligi qayd etilgan edi.

O'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari viloyatlarda ham tashkil etilib faoliyat yuritgan. Mazkur kurslarni ham tatar xotin-qizlari tahsil olganlar. 1920 yil Samarqand viloyatida musulmon muallimlarini qayta tayyorlash kurslari tinglovchilar soni 86 nafar bo'lib, ulardan 72 nafari o'zbek, 3 nafari tojik va 6 nafari tatar va 5 nafari tatar xotin-qizlari bo'lgan.

³⁶Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари. (20-30 йиллар тажриба ва оқибатлар). Тарих фан. номз.дисс... – Т., 1998, – Б. 97

Sovet hukumati eski va yangi usul maktablari muallimlarini qayta tayyorlash orqali ham mavjud muammoni ma'lum darajada hal etishga erishgan. O'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslaridan biri 1920 yili Qo'qon shahrida ham ochilgan edi.

1920 yil Samarqandda ochilgan musulmon o'qituvchilarini tayyorlash kurslarining 82 nafar tinglovchi tamomlagan. Ulardan 65 nafari o'zbek 2 nafari tojik va 15 nafari tatarlar bo'lib, 8 nafari tatar ayollaridan iborat edi.

Sovet hukumati mahalliy ayollarni maorif soxasiga jalb etish maqsadida mehnat maktablarini ham tashkil etgan. Mazkur maktablar qoshida ham qisqa muddatli muallimlarni tayyorlash kurslari tashkil etilgan. Masalan, shunday maktablardan biri 1920 yil 24 aprelda Toshkent shahri Turk mehnat maktabida ochilgan.

1920 yil Namangan xalq maorifi bo'limi ochilgan 5 oylik pedagogik kurslardagi o'quv dasturlarida quyidagi fanlar o'qitilgan.

Sovet hukumati turli yo'llar bilan xotin-qizlarni kurslarga jalb etishga harakat qilgan. Masalan, ularga ko'p miqdordagi stipendiyalar ajratish va oziq-ovqat bilan ta'minlash orqali ham ayollar turli yo'nalishlardagi kurslarga jalb etilgan. Xalq maorifi komissarligining 1920 yil 13 avgustdagi Toshkent shahar ijroiya komitetiga yuborgan xatida, Xalq maorifi komissarligi qoshidagi maktabgacha ta'lim bo'limi instruktorlarini tayyorlash maqsadida, shu yilning 15 sentyabridan 3 oylik kurslarni ochganligi qayd etilib, kurslarga erkaklar va ayollardan iborat talabalar o'z ish joylari saqlangan holda qatnashishlari va mehnat stajlariga ega bo'lgan ishchilar qabul etilishi aytib o'tilgan.

Pedagogik kurslarni tamomlaganlar Xalq maorifi komissarligi tomonidan tayinlangan ish o'rinlarida ishlab berish majburiyatini olganlar. Maktabgacha ta'lim kurslari tinglovchilari kurslarni tamomlaganlaridan keyin Xalq maorifi komissarligi tomonidan ish joylari tayinlanib kursantlar mazkur joylarda 3 yilgacha ishlab berish majburiyatini olganlar. Ayrim holatlarda ularga o'z xizmat joylarini o'zgartirish huquqlari ham berilgan.

1921 yildan boshlab, savodsizlikni tugatish maktablari va kurslari soni ortib borgan. 1921 yilning o'zida TASSRda 50 ming kishini birlashtirgan 1000 ta savodsizlikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatdi.

1919 yil 25 oktyabrda Toshkentda "Turk xotin-qizlar bilim yurti" ochildi. Tabiiyki, Turkistondagi kuchli an'anaviy milliy urf-odatlar mavjud bir sharoitda mahalliy ayollarning ostona xatlab ko'chaga chiqishlari amrimahol edi. Turk xotin-qizlar bilim yurti o'sha paytda mahalliy millat tilida Dorulmuallimat deb ataldi. 1920 yili mazkur bilim yurtiga o'zbek xotin-qizlar instituti nomi berildi. 1919 yil mazkur bilim yurti qoshida ham muallimlar tayyorlash qisqa kurslari tashkil etildi. O'zbek xotin-qizlari instituti ayni paytdagi Turkistondagi nufuzli bilim dargohlaridan biri hisoblangan. Ayrim arxiv manbalarida mazkur bilim yurti turk xotin-qizlar pedagogik bilim yurti deb ham nomlangan.

O'lka xotin-qizlar bilim yurti mas'ul kotibi 1921 yil 10 oktyabrdagi xalq maorifi komissarligiga bergan xisobotida Toshkent shahrida o'zbek xotin-qizlar bilim yurtini tashkil etilganligiga 3 bo'lganligi bu davr mobaynida bilim yurtida hych bir muvaffaqiyatga erishilmaganligi qayd etilib, buning asosiy sababi bilim yurti kerakli o'quv jihozlari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi o'quv xonalarining yetishmasligi, qish faslida xonalarni isitish masalasi yaxshi emasligi bilan izohlagan.

Mazkur davrda o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida kadrlar qo'nimsizligi yuzaga kelgan. Bu holat ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri bo'lgan. Mahalliy xotin-qizlarni maorifga tortishda mazkur institutlarining hissasi katta bo'lgan. Sovet hukumati siyosatini targ'ib etishda kutubxonalarning ham ma'lum darajada hissasi bo'lgan.

O'zbek xotin-qizlar bilim yurtida 1923 yilning 23 may kunida pedagogik kengash bo'lib, unda A.Avloniy, Mark, Kotelnikova, Baxtiyorova, Shafigullina, Ziyomaxammedova, Yangulatova, S.Qorievlar ishtirok etishgan. Pedagogik kengash kun tartibiga S.yenikeeva va Kuchukovalarning bilim yurti tarbiyachiligi lavozimiga nomzodini hal etishligi haqidagi

masala ham qo'yilgan edi. Unda to'plangan ovoznining ko'pligi bilan S.yenikeeva ustunlik qilib, natijada bu lavozimga tayinlangan. Olib borilgan tadbirlar natijasi o'laroq, bilim yurti nufuzi mahalliy xotin-qizlar orasida ortib bordi, hamda talabalarning aksariyat qismini o'zbek qizlaridan tashkil topishiga olib keldi. Masalan, 1919 yildagi ma'lumotga ko'ra ushbu bilim yurti talabalarining 9 nafarini o'zbek xotin-qizlari tashkil etgan bo'lsa, 1920 yilga kelib, ularning soni 120 nafar yetgan.

Ta'kidlash joizki, mazkur bilim yurti o'zbek xotin-qizlaridan fan arboblari yetishib chiqishida muhim poydevor vazifasini o'tagan. O'zbek xotin-qizlar bilim yurtini bitirib chiqqanlar keyichalik fanning turli soxalari bilan shug'ullanganlar. O'zbek teatrining yorug' yulduzlari Halima Nosirova, Sora Eshonto'raeva, O'zbekiston xalq artistlari Shohida Maxsumova, Zamira Hidoyatova, meditsina mutaxassislaridan professor Xasana Yunusova, dotsent Lazokat Orifxonova, pedagog Tojixon Rustambekova, Sobira Xoldorva, Manzura Sobirova, Sharifa Tojiev, shoira Xosiyat Tillaxonova, Salomat Raximovalarga o'xshash mutaxassislar hammasi shu bilim yurtini bitirib chiqishgan³⁷.

Oktyabr inqilobidan avval va keyingi sovet davlati qurilishi yillarida ham otinoyi maktablari faoliyat ko'rsatib kelgan. O'zbek xotin-qizlar bilim yurtida direktorlik lavozimida ishlagan dastlabki o'zbek ayoli Robiya Nosirova bo'lib, u dastlabki saboqni otinoyi maktabida olgan. O'zbekiston xalq artisti Shohida Maxsumovaning bergan ma'lumotiga ko'ra, boshlang'ich ta'limni u G.G'ulomning buvisi Orifaxon Otindan oladi va 1920 yildan Shayxontahurda "Zebuniso" nomli birinchi o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida davom ettiradi³⁸.

O'zbek ayollaridan dastlabki muallima va rahbr xodimalarning yetishib chiqishida o'zbek xotin-qizlar bilim yurtining o'z navbatida ushbu bilim dargohida faoliyat yuritgan tatar muallimalarining katta hissalari bo'lgan. XX asr 20-yillarining birinchi choragi xotin-qizlar maorifida ma'lum darajada o'zgarishlar yasadi. O'zbek xotin-qizlari savodsizlikni tugatish maktablarida saboq olib ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok eta boshladilar. Savodsizlikni tugatish maktablarining yanada ko'paytirish uchun hukmron firqa bor imkoniyatlari darajasida ishlar olib borgan. 1923-24 o'quv yilida mahalliy ayollar uchun 15 ta savodsizlikni tugatish maktablari tashkil etish mo'ljallangan. Olib borilgan targ'ibot-tashviqot ishlari natijasida mahalliy millat xotin-qizlari maorifga jalb etildi. Masalan, 1923 yilda ishchi fakultetlarida 30 nafar mahalliy millat ayollari o'qigan. 5 nafar o'zbek qizlari Moskva shahridagi sharq mehnatkashlari dorilfununiga o'qishga yuborilgan.

1923-24 o'quv yilida Turkistonda 500 nafar xotin-qizni birlashtirgan 23 savodsizlikni tugatish maktabi mavjud bo'lgan. 1925-26 o'quv yilida 82 ta savodsizlikni tugatish maktabi mavjud bo'lib, unda 2700 nafar xotin-qiz o'qigan. Ulardan 800 nafari mahalliy millat ayollari bo'lgan³⁹.

Mahalliy xotin-qizlar orasida sovet hukumatining siyosatini targ'ib etishda kutubxonalar ham muhim vosita rolini o'ynagan. Xalq maorifi komissarligi qoshida kutubxona bo'limi tashkil etilib, u ko'chma kutubxonalar tuzib, shu orqali kutubxonachilar tayyorlash ishlari bilan shug'ullangan. 1924 yilda respublika bo'yicha, 122ta kutubxonalar faoliyat yuritgan. Shu yilning oxiriga kelib, ularning soni 131 taga yetgan⁴⁰.

Olib borilgan chora-tadbirlarga qaramay 1925 yilga kelib ham savodsizlikni tugatish ishlarida muallimlar yetishmasligi masalasi hal etilishi zarur bo'lgan masalalardan biri sifatida

³⁷Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласининг хал этишининг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар. тажриба ав оқибатлар) Тарих.фан. ном. дисс... – Т., 1998. – Б. 110

³⁸Нишонбоева Қ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласининг хал этишининг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар. тажриба ав оқибатлар) – Б. 110

³⁹Жўраева Н. Ўзбекистоннинг ижтимоий –иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни. Тарих. фан.. номз. дисс.– Т., 2004. – Б. 115

⁴⁰ Жўраева Н. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни. – Б. 137.

kun tartibida turardi. Mazkur masalani hal etish maqsadida, viloyatlarda bir yillik qisqa muddatli kurslar faoliyat ko'rsatdi.

Ayni paytda O'zbek xotin-qizlar institutiga muntazam ravishda viloyatlardan o'zbek qizlari yuborilishi ko'zda tutilgan. Mazkur holat ham o'zbek xotin-qizlaridan muallimalarni tayyorlash ishlarini ma'lum darajada yaxshilanishiga olib kelgan.

Mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan xotin-qizlar maorifida oldinga siljishlar yuzaga keldi. Ko'plab mahalliy millat xotin-qizlari maktablarda savod chiqarib ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok eta bolshadilar. Sovet davlatining olib borayotgan yopiq eshiklar siyosatidan norozi taraqqiyparvarlar yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. O'z hukmronligini saqlab qolish hamda dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallash maqsadida hukmron siyosiy firqa yoshlarni chet ellarda o'qitishni yo'lga qo'ydi. Chet elga o'qishga borgan dastlabki xotin-qizlar orasida tatar ayollari ham bo'lgan. O'zbekistondan birinchi bo'lib Germaniyaga jo'natilganlardan biri xorazmlik Maryam Sultonmurodova edi.

1919 yilda u Toshkentga keldi va o'qituvchilar tayyorlash institutida ta'lim olgan. Izlanishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, u 1921 yili o'zbek xotin-qizlar institutida ham muallima va tarbiyachi vazifalarida ishlab kelgan. 1922 yili M.Sultonmurodova turkistonlik va buxorolik yoshlar qatorida Germaniyaga yuborildi. U 1923 yilgacha Berlinda ta'lim oladi va nemis tilini o'rgandi. 1928 yil Toshkentga qaytib, Toshkentning Eski shahridagi kechki kommunistik universitetining o'quv bo'limi mudirasi, 1935 yildan "Guliston" jurnalida faoliyat ko'rsatdi⁴¹.

Sovet hukumati o'z hokimiyatni mustahkamlash maqsadida, mahalliy xotin-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish va ulardan yangi hukumatni qo'llab-quvvatlovchi sodiq fuqarolarni tayyorlash uchun savodsizligini oshirish yo'li tanlandi. Sovet hukumatining asl maqsadi, xotin-qizlar savodsizligini tugatish emasdi. Mazkur vosita orqali ularning ongida mavjud tuzumga bo'lgan muhabbatni oshirish bo'lgan.

1.3. Turkiston xotin-qizlari va "Hujum" harakati: maqsadlari va oqibatlari

Xotin-qizlar masalasi bashariyat tarixidagi o'ziga xos, murakkab hodisalardan. Bu muammo ayniqsa, ming-minglab musulmonlar qismati keskin hal etilgan katta ijtimoiy o'zgarishlar davrida O'zbekiston xalqlari o'tmishida o'chmas iz qoldirdi.

O'zbekiston xotin-qizlarining hayoti asrlar osha musulmonchilik qonuniyatlari va an'analari asosiga qurilgan edi. Shu bois sovet hukumati o'rnatilgach, qisqa vaqt ichida ularni yemirib tashlab, mutlaqo yangi an'analarni va unga muvofiq ravishda xotin-qizlarning yaralishi haqidagi qotib qolgan tushunchalardan butunlay xoli bo'lgan erkaklar avlodini yaratish mumkin emasdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, haqli bir savol tug'ilishi tabiiy: O'zbekistonda «Hujum» harakatini boshlash, eski turmushga hujum qilish, ya'ni o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish zarurmidi? Ha, zarur edi, biroq bolsheviklar tanlagan tezkorlik yo'li bilan emas, asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak edi⁴².

Ma'lumki, oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi, balog'atga yetmagan qizlarni erga bermaslik masalalari bo'yicha bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. XX asrning 20-yillarida tashkil etilgan xotin-qizlar bo'limlari bu jabhada umuman olganda to'g'ri ishlarni amalga oshirdilar: har bir xonadonga kirib tushuntirish ishlari olib bordilar, maxsus xotin-qizlar klublari, artellar, do'konlar tashkil etdilar, bu yerlarda xotin-qizlar hych qanday qarshiliksiz tikish, savdo-sotiq, o'qish-yozishni o'rganish bilan shug'ullandilar. Barcha tadbirlar o'zbek xotin-qizlari turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy

⁴¹ Нишонбоева К. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласининг ҳал этишнинг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар. тажриба ва оқибатлар)... – Б. 148-149.

⁴² Нурмухаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 32.

an'analarga mutanosib holda olib borildi. o'sha paytlarda hych kim paranji tashlash haqida so'z yuritmas edi. Faollar ko'proq ishontirish usuliga tayanishardi. Shunga ko'ra, xotin-qizlar huquqini ta'minlash, ularni yaratuvchilik va jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi. Ayollar mehnati oila byudjetiga munosib hissa qo'shgani, fuqarolarga qo'l kelgani ma'lum.

Tashkil bo'layotgan maorif tizimi, boshqa sohalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralari ko'rildi. Toshkentning Yangi shaharida 1918-yilda Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi. 1920 yilda universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari yetkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakulteti (rabfak)da kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. yerli xalqlar vakillari ularga kam qatnagan.

Toshkentning eski shaharida, Qo'qon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920 yildan 7 ta dorulmuallimin (inpros), bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1925 yilga kelib O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki 3–4 marta o'sgan.

1924 yilda Qo'qon bilim yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti T.N.Qori Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi⁴³.

XX asr 20–30-yillaridagi juda murakkab ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgartirishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish haddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Shunday bo'lsa-da, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari, avvalo, o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rinadi. Bundan tashqari, oktabr to'ntarishidan avval katta madaniy ishlar olib borgan jadid deb atalmish ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar, avvalo, darslar ona tilida olib boriladigan 1 (besh yillik ta'lim) va 2 (to'rt yillik ta'lim) bosqich maktablarni ochish va ularni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, maorif institutlari, o'qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

1924/25-o'quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. 1 va 2 bosqichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928/29-o'quv yiliga kelib deyarli 2,5 mingtaga yetdi.

Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kompaniya avj oldirildi. 1921/22-o'quv yilidayoq respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarida katta qiyinchiliklarga duch keldi. O'qituvchilar, maktab binolari, asbob-jihozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari yetishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo'lsa-da, izga tusha boshladi, katta yoshli kishilarni o'qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog'i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o'qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo'ldi⁴⁴.

⁴³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. II китоб, -Т.: Шарк, 2000. – Б. 375.

⁴⁴ Ахтямова Н.С. Хотин-кизлар масаласи: Икки дунё, икки хил ёндашув. –Т.: Билим, 1987. – Б. 23.

Hamza Hakimzoda Niyoziy, T.Shermuhammedov, T.N.Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo'jaev, G'ozil Nazarov, Muharrama Qodirova, Zebuniso Polvonova, P.Qayumov, K.Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o'qituvchilardan bo'lib qoldilar.

Shu yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni ko'p miqdorda, tezkorlik bilan tayyorlab, ular orqali aholini, ayniqsa, yosh avlodni kommunistik g'oyalar asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og'ishmay amalga oshirish uchun zarur mablag'larni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmog'i yaratildi. Texnikumlar, maorif institutlari, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur'atlar bilan ommaviy miqyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. XX asrning 20-yillari oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5,5 mingtaga yetib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi.

Xalqning bilimga bo'lgan intilishi kun sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o'sdi, bu narsa millatning ma'naviy imkoniyatlari yuksalishiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi.

Shunday bo'lsa-da, bu jarayonlar partiyaning madaniy sohada zo'rlik ko'rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi. Xalq maorifida bu narsa avvaliga milliy ta'lim shakllari yoyiladigan sohalarni cheklab qo'yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo'q qilib yuborishda o'z aksini topdi. Chunonchi, XX asr 20-yillarining boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta'minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. Lekin sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928-yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar⁴⁵.

Xalq ma'rifatining yuksalishi yo'lida hamon katta g'ov bo'lib turgan muammo aholining savodliligini oshirish bo'lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930 yili umumiy boshlang'ich ta'limning joriy etilishi savodsizlik ko'lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Ajratilgan katta mablag'lar maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. Umumiy ta'limni amalga oshirish uchun o'qituvchilar, talabalar, ilm-fan xodimlari, yoshlar jamoalarining katta armiyasi safarbar etildi. XX asr 30-yillarining oxirlarida umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi.

O'zbek milliy dramaturgiyasi va musiqasi, teatr va kino, tasviriy va amaliy san'ati ham xalqimiz ma'naviy madaniyatining hayotbaxsh manbai bo'lib qoldi va unga xizmat qildi.

Musiqqa, teatr va kino san'atining iste'dodli milliy kadrlari yetishib chiqdi. O'zbek milliy musiqasini rivojlantirishda o'zbek kompozitorlaridan To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burhonovlar ko'p mehnat qildilar. Ajoyib rejissyorlar va aktyorlar Mannon Uyg'ur, Ma'suma Qorieva, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'raeva, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev, Mariya Kuznetsova, Razzoq Hamroev, Sh. Qayumov, T. Saidzimova va boshqalar tufayli o'zbek teatr sarfati gullab-yashnadi. Vokal va raqs san'atida Xalima Nosirova, Karim Zokirov, Muhiddin qori Yoqubov, Boborahim Mirzaev, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva va boshqalar yuksak mahoratga erishdilar. O'zbek musiqqa va vokal madaniyatining rivojlanishida 1936 yili Toshkentda ochilgan davlat konservatoriyasi muhim rol o'ynadi. 1939 yili respublika poytaxtida opera va balet teatri ochildi⁴⁶.

⁴⁵ Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш. – Т., Узфанакадемнашр, 1961. – Б. 45.

⁴⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... – Б. 376.

XX asrning 20-30-yillarida Qoraqalpog‘iston madaniyatining rivojlanishi ziddiyatli kechdi. 1924 yili qoraqalpoq xalqi arab yozuvi asosida ishlab chiqilgan alifboga o‘z tarixida birinchi marta ega bo‘ldi. 1925 yilda esa birinchi qoraqalpoq alifbe kitobi bosib chiqarildi. Bu savodsizlikni tugatish tarmoqlari va maktablarning ishini ancha yengillashtirdi. 1924/25-o‘quv yilida endi 53 ta shunday tarmoq va maktablar bor edi. O‘qituvchilarning yetishmasligi, aksarining ma'lumoti pastligi savodsizlikni tugatishga doir ishga ancha halal berib keldi. 1928/29-o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston viloyatida 3 ming nafarga yaqin kishi savodsizlikni tugatish tarmoqlarida o‘qishni bitirib chiqdi va 4 ming nafar kishi o‘qishni davom ettirib bordi. Viloyat rahbariyati bunday sur'atlar bilan qoniqmay, 1937/38-o‘quv yilining oxiriga kelib savodsizlikni butunlay tugatish vazifasini qo‘ydi. XX asrning 30-yillarida savodsizlik uchun o‘quv qo‘llanmalarini chop etish ko‘paydi⁴⁷.

Xotin-qizlar savodsizligini tugatishga alohida e'tibor berildi. Bu masalani hal qilish vaqtida bevosita ma'muriy choralar ham ko‘rildi. Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1935 yil dekabrda qabul qilgan maxsus qaroriga muvofiq, xotin-qizlar savodsizligini tugatishga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak edi. Umuman olganda, bu harakat ijobiy natijalar bera boshladi. 1928-yili atigi 1815 nafar savodli xotin-qiz bo‘lsa, 1935 yilda ularning soni 13644 nafarga yetdi. Juda ham to‘la bo‘lmagan ma'lumotlarga qaraganda, Qoraqalpog‘iston aholisining umumiy savodxonligi 1937 yili 43 foizni, 1939 yilda esa 60 foizni tashkil etgan.

Savodsizlikni tugatishga oid qisqa muddatli kurslar maorif muammosini hal qila olmas edi. Qoraqalpoq xalqi shu qadar muhtoj bo‘lib turgan mutaxassislarni keyinchalik tayyorlab berish uchun muntazam maktab ta'limigina mustahkam poydevor yaratib berishi mumkin edi. 1924/25-o‘quv yilida viloyatda 49 ta maktab bor edi. 1927/28-o‘quv yilida ularning soni 75 taga yetdi, ularda maktab yoshidagi bolalarning taxminan 16 foizi o‘qidi.

Taajjublanarlisi shundaki, totalitar rejim bu boradagi ishlar sekin-asta borayotganidan qoniqmadi. Uni sun'iy ravishda tezlashtirish maqsadida 1927-yil bahorida «Hujum» kompaniyasi boshlab yuborildi va unga zarbdor safarbarlik xususiyati berildi. Bu jarayonda bolsheviklar ruhiy omillarni, islom omilini mutlaqo hisobga olmadi. Holbuki, xotin-qizlarning paranjisiz yurishiga ijtimoiy muhit to‘g‘ri kelmasdi, bunga na partiya, sovet xodimlari, na oddiy odamlar tayyor edilar. Rahbar kadrlar partiya organlarining tazyiqi bilan o‘z xotinlarini parangi yoqadigan joylarga yetaklab kelardilar-da, ertasiga yana parangi yopinishga majburlardilar⁴⁸.

«Hujum» kompaniyasi jarayonida bolsheviklar zo‘ravonlik, ma'muriy yo‘l bilan yuz ming ayolning paranjisini tashlattirdi. Lekin partiyaning o‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarishni tezlashtirish siyosati yomon oqi-batlarga olib keldi. «Hujum»ga qarshi bo‘lganlar ayollarga nisbatan zulm o‘tkaza boshladilar. 1927–1928 yillarda O‘zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, tuman, qishloq kengashlarining a'zolari, xotin-qizlar klublari, kutubxonalar mudirlari, o‘qituvchilar hayotdan ko‘z yumganlar. Ayollarni erksizlikdan qutqarishda, erkinlikka chiqarishda bunday dahshatli fojialar bo‘l-masligi ham mumkin edi. Buning uchun ularga avvalo zarur shart-sharoitlar yaratib, bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak edi.

Sovet hukumati o‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayonida ularni ishlab chiqarishga jalb qilish tadbirlarini ham amalga oshirdi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad sovet xalq xo‘jaligi muammolarini hal qilish uchun yangi mehnat resurslari, ishchi kuchlarini paydo qilish edi.

Dastlab xotin-qizlar hunarmandchilik kooperatsiyasiga jalb qilindi. Xotin-qizlar klublarida ich kiyim, ko‘rpa-to‘shak, do‘ppi to‘qiydigan xona-ishxonalar ochildi. Keyinchalik, hunarmandchilik kooperatsiyasi tarkibida maxsus ayollar artellari tashkil qilindi. 1926 yilda

⁴⁷ Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (XIX аср охири ва XX аср). – Т.: «Ijod dunyosi», 2004. – Б. 124.

⁴⁸ Қор қўйнида лолалар / Масъул муҳаррир Б. Шарипов, -Т.: Академия, 2001. – Б. 34.

respublikada 16 ta yirik ayollar artellari bo‘lib, ularda 814 nafar mahalliy millat vakillari mehnat qilardi.

Qishloq joylarda ham ko‘plab ayollar artellari ochildi. Marg‘ilon tumanida ayollar pillakashlik arteli, Surxondaryo okrugining Koshman qishlog‘ida gilam to‘quvchi ayollar arteli mavjud edi. Shunga o‘xshash hunarmandchilik artellari qishloqlarda ham faoliyat ko‘rsatardi.

1930-yilda respublika hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq artellarida 5 ming nafardan ko‘proq ayollar ishlardi. Ularning ko‘pchiligi tikuvchilik ishxonalarida mehnat qilardi. Bundan tashqari, 2 mingga yaqin ayollar artellar bilan shartnoma tuzib, uyda ishlardilar. Xotin-qizlar yirik sanoat korxonalariga ham jalb qilina boshlandi. Bu ish umuman olganda ijobiy jarayon edi. Lekin ko‘p hollarda atroflicha, puxta o‘ylab ko‘rmay, kompaniyachilik yo‘li bilan ayollarni og‘ir ish-larga, ularning sog‘lig‘iga to‘g‘ri kelmaydigan vaziyatlarga qo‘ydilar. Ayollarning fiziologik o‘ziga xos tomonlari hisobga olinmadi. Bu, albatta, ishlab chiqarishga jalb qilishdagi noto‘g‘ri yo‘l edi⁴⁹.

XX asrning 30-yillari boshidan boshlab ayollar mehnatiga munosabat o‘zgardi. Sanoatlashtirishni jadallashtirish, sotsialistik muvaffaqiyatlar ortidan quvish ayollar masalasida ham o‘z asoratini qoldirdi. Ayollar erkaklar bilan teng huquqli degan qoida noto‘g‘ri talqin qilinib, xotin-qizlar mehnatda ham erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi kerak, deb talab qilindi. Ayollar masalasi hal etildi deb tushunildi. Hattoki partiyaning qurultoylarida «Hozirgi paytda xotin-qizlar shu qadar o‘sib ketganki, ularning o‘ziga xos jihatlari haqida gapirish o‘rinsiz», deb ko‘rsatildi. 1930 yilda xotin-qizlar masalalari, muammolari bilan shug‘ullanadigan xotin-qizlar bo‘limlari faoliyati to‘xtatildi.

Ayollar jismoniy kuch talab qiladigan og‘ir sanoat korxonalarida chilangar, slesar, haydovchi bo‘lib ishladilar, qurilishda mehnat qildilar. 1931-yilda «Tashselmash» zavodida 345 ayol, Toshkent temir yo‘lining «Birinci may» ustaxonasida 80 nafar ayol ishlagan. 1940-yilga kelib respublika sanoatidagi ishchilarning 41 foizini xotin-qizlar tashkil etardi.

O‘zbek xotin-qizlari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga ham keng jalb qilindi. Ayollar kolxozlarga a‘zo bo‘ldilar, pillachilik, bog‘dorchilik, parrandachilik, sut xo‘jaligi kabi qishloq xo‘jaligining yordamchi tarmoqlarida mehnat qildilar.

Respublikada ipakchilik keng rivojlangan edi. 1928 yilda Toshkent okrugida pillachilik artellariga 560 dehqon xo‘jaliklari birlashgandi. 1930 yilda respublikaning ipakchilik kooperatsiyasi shirkatlarida 13 mingga yaqin ayollar ishlardilar.

1925-1928 yillarda ayollar kolxozlari tashkil qilindi. Ularda 5,5 mingdan ko‘proq xotin-qizlar mehnat qildi. Lekin bu artellar amalda o‘zini oqlamadi. Xo‘jalikdagi og‘ir ishlarni bajarish uchun erkaklar yordami kerak bo‘ldi. Shundan so‘ng ayollar kolxozlarda erkaklar bilan birga ishlay boshladilar. 1931 yilda respublikada 50 foiz xotin-qizlar kolxozlarga a‘zo bo‘lib kirgan edilar⁵⁰.

XX asrning 30-yillarida o‘zbek ayollarini ulaiga mos bo‘lmagan kasb–traktorchilikka o‘rgatish ayjga chiqdi. Faqat 1939 yilda 2500 xotin-qizlar traktorchilar kursida o‘qishga majburan jalb qilindi. Ularning ko‘plari o‘qishni bitirib bu kasb bo‘yicha ishlamasdi. Farg‘ona, Samarqand, Xorazm viloyatlarida kurslarni bitirgan 2 mingdan ortiq ayollardan faqat 714 nafari traktorchi bo‘lib ishlagan.

Shunday qilib, o‘zbek xotin-qizlarining ishlab chiqarishga jalb etilishi ularni ozodlikka chiqarishda muhim omil boldi. Shu bilan birga partiya organlarining ma‘muriy-buyruqbozlik usuli, sanoatlashtirishni, kollektivlashtirishni jadallashtirish siyosati ishlab chiqarishda ayollar mehnatini tashkil qilishda qator muammolarni keltirib chiqardi.

⁴⁹ Камолов У. Ўзбекистон хотин-қизлар маорифининг ривожланиши // Совет мактаби. – Тошкент, 1974, – №1, – Б. 16-21.

⁵⁰ Чеботарёва В.Г. Ўзбекистон хотин қизлари янги жамиятнинг актив қурувчилари. –Т.: Билим, 1987. – Б. 12.

O'zbek ayollarini jamiyatning teng huquqli a'zolariga aylantirishda, erksizlikdan qutqarishda ulami madaniy va ijtimoiy hayotga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Madaniy-tarbiyaviy ishlarni olib borishda ayollar klublari katta rol o'ynadi. Bu klublarda ayollarga vrachlar maslahatlar berardi, bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilardi. Tikuvchilik va boshqa hunarmandchilik artellari tashkil qilinib, ayollarga moyana olish imkoniyati tug'dirildi. Shuningdek, kutubxona, yaslilar ochildi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha suhbatlar o'tkazilib turildi. Klublar o'zbek xotin-qizlarining madaniy saviyasini orttirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1927-yilda Andijondagi eski shahar ayollar klubida 134 a'zo bo'lgan. 30-yillar oxirida respublikada 42 ta shunday klublar faoliyat ko'rsatgan.

XX asrning 20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926-yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936 yilda 186 ming ayol savodini chiqargan⁵¹.

Kasb-hunar ta'limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928-yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929-yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932-yilda respublika oliy o'quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

Xotin-qizlar faoliyatini oshirishda ayollar majlislari, oilaviy yig'inlar, ayol delegatlari majlislari qo'l keldi. Delegatlarga xotin-qizlar bo'limlari maxsus yo'llanma berib, davlat kooperativ va boshqa tashkilotlariga janoatchilik asosida ishga yuborgan. Ular mahallalarda ayollar orasida tushuntirish ishlari olib borganlar, mahallalardagi majlislarda kelin olganda qalin berish, balog'atga yetmagan qizlarni erga berish, ko'p xotinlik davlat qonunlari bilan man etilganligini tushuntirganlar. Delegatlar tashkilotlarda, idoralarda ishlab, amaliy ish tajribasini o'zlashtirganlar. Tajribaga ega bo'lgan delegatlar ma'muriy, xo'jalik, jamoat ishlariga jalb qilingan.

Qishloq joylarda ayollarning «Qo'shchi» uyushmasiga, kooperativlarga a'zo bo'lishi keng tus oldi. 1927 yili Farg'ona okrugining faqat 7 tumanida 3 mingga yaqin ayol «Qo'shchi» uyushmasiga a'zo edi. «Qo'shchi» uyushmalari xotin-qizlarning savodsizligini bitirish kurslari ochib, ularning madaniy saviyasini ko'tarishga, faolligini orttirishga hissa qo'shdi.

O'zbek xotin-qizlari rahbarlik lavozimlarida ham ishlash layoqatini ko'rsatdilar. 1927-yilda respublikadagi tuman ijroiya qo'mitalari a'zolarining 20 foizi, okrug ijroiya qo'mitalari a'zolarining 17 foizi ayollar edi. Jahon Obidova O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi raisining o'rinbosari, Tojixon Shodieva ko'p yillar O'zbekiston MIK Prezidiumi a'zosi bo'lgan. Ko'plab ayollar respublika Xalq Komissarliklari va boshqa davlat idoralarida bo'lim boshlig'i, inspektor lavozimlarida ishlagan⁵².

Ayollar orasidan XX asrning 30-yillarida mashhur olimlar, yozuvchilar, shoirlar, muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, san'atkorlar yetishib chiqa boshladi. o'sha yillarda Sora Eshonto'raeva, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboevalarning iste'dodi yarqirab ko'zga tashlandi. Bularning barchasi o'zbek xotin-qizlarining teng huquqli jamiyat a'zosi bo'lish, madaniyat, bilimga intilishlari samarasi edi. Sovet davlatining ayollar borasidagi siyosati shoshma-shosharlik, o'sha davrdagi kommunistik mafkura bilan sug'orilgan bo'lsa ham, O'zbekiston ayollari asrlar osha qonida mujassamlashgan shijoat, faollik, aql-idrok, millatimizga xos erkinlikka intilish kabi fazilatlarini tufayli ko'pgina ijobiy natijalaiga erishdilar.

⁵¹ Камолов У. Ўзбекистон хотин-қизлар маорифининг ривожланиши... – Б. 18.

⁵² Мустафаева Н. Туркистон миллий зиёлиларининг қарашларида аёлларнинг оила ва жамиятда тутган ўрни масалалари... – Б. 61.

Xotin-qizlar masalasi insoniyat tarixida hamisha o'ziga xos murakkab muammo bo'lib kelgan. Millonlab Turkiston ayollari qismatini o'z ichiga olgan bu ijtimoiy-siyosiy masalani XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmida bolsheviklar o'z andozalari asosida keskin hal qildilar.

Turkiston xotin-qizlarining hayoti qadimdan musulmonchilik qonuniyatlari va an'analari asosida qurilgan bo'lib, sovet davrida ana shu diniy qadriyatlar va an'analar «xurofot» sifatida qoralanib kelindi. An'analarimizdagi, qadriyatlarimizdagi milliylik, ayollarga bo'lgan hurmat va e'zozlash sifatleri mutlaqo unutildi⁵³.

Sovet hukumati o'rnatilgach, ayollarning butunlay yangi avlodini, ularni faqat oilani o'ylaydigan shaxslar emas, balki ko'proq jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotida erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Sovet davlati Turkistonda xotin-qizlar teng-huquqliligini ta'minlash, balog'atga yetmagan qizlarni erga berishni taqiqlash kabi masalalar bo'yicha bir qator qonun va yo'l-yo'riqlarni qabul qildi. Lekin bu masalalar jamiyatni faqat sovetlar davridagina qiziqgirdi deyish xato bo'lardi. XX asr boshlarida O'zbekistonda paydo bo'lgan milliy taraqqiyparvar harakatlar dasturida ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallashi masalasi o'z aksini topgan edi. Masalan, jadid tashkiloti «Sho'roi Islom» o'zining dasturida birinchi bo'lib ayollarga saylovlarda qatnashish huquqini berish masalasini qo'ydi. Jadidchilik rahbarlari M.Behbudiy, A.Fitrat, F.Xo'jaev, A.Cho'lpon, A.Avloniy kabi taraqqiyparvarlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini nihoyatda yuqori baholab, ularni ijtimoiy ozodlikka chiqarish zarurligini ta'kidlagan edilar. Ularning fikricha, jamiyatni o'zgartirish ma'naviy va madaniy-maishiy hayotning tubdan isloh qilishdan boshlanishi kerak. Ya'ni xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas, oxir oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog'liqdir. Shuning uchun XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan tadbirlar nafaqat xotin-qizlar, ayni paytda jamiyatning progressiv ruxdagi erkaklari tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan edi.

⁵³ Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш... – Б. 22.

II BOB. SOVET HUKUMATINING TURKISTONDA BOLALAR MASALASIDAGI SIYOSATI: MUAMMOLARVA YECHIMLAR

2.1. Sovet hokimiyatining bolalar muammosini hal etish borasidagi siyosati va uning mohiyati

Rossiya imperiyasi va uning chekka o'lkalaridagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy ahvol bir-biridan tubdan farq qilmas edi. Chunki Rossiyaning o'zi qoloq, agrar mamlakatlar qatorida turardi. Boz ustiga birinchi jahon urushi (1914-1918) Rossiya va uning hukmronligi ostidagi chekka o'lkalarni yanada iqtisodiy botqoqqa hamda siyosiy boshboshdoqlikka keltirib qo'ydi. Chunki bu urush juda ko'p oilalarni bir-biridan ayirishga, chekka o'lkalar iqtisodiyotiga, qanchadan-qancha kishilarni qurbon bo'lishiga olib keldi. Natijada minglab bolalar ota-onasiz qolib, nazoratdan chetda qolgan edilar. Ota-onasidan ayrilgan va ayni paytda nazoratdan chetda qolgan, bir burda nonini, juldur kiyimini o'zi topishga, issiq-sovuqlarda och-yalang'och yurishga majbur bo'lgan bolalar butun mamlakat bo'ylab kezib yurardi. Amalda bolalar tarbiyasi, ularning oziq-ovqat ta'minoti, kiyim-kechagi, boshpanasi «taqdir taqazosi»ga qo'yib berildi. Natijada, «o'zing uchun o'l yetim» aqidasi rioya qilish qismatiga duchor bo'lgan bolalar bir burda non topish yo'lida har qanday jinoyatga bosh suqib ko'rishdan qaytmaydigan bo'lib qoldi. Bolalar jinoyati borgan sari ko'payib bordi. Chunki katta yoshdagilar urushda va ayrimlar ro'zg'or tashvishiga o'ralib, qolgan ma'lum bir ziyolilar esa «inqilobiy harakatlar» bilan ovora bo'lib, bu amalda bolalar masalasini yanada dolzarb muammolardan biriga aylantirib borardi.

1917 yilgi fevral inqilobi va oktyabr davlat to'ntarishi Rossiya va uning chekka o'lkalaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvolni yanada murakkablashtirib yubordi. Joylarda katta yoshdagilarni «inqilobiy harakatlar» bilan va hokimiyat uchun kurashga faol o'ralashib qolgani amalda bolalar muammosini yanada dolzarb tarzda kun tartibiga ko'ya boshladi. Sovet hokimiyati oldida bolsheviklar tomonidan qo'lga kiritilgan «inqilobiy muvaffaqiyatlar»ni mustahkamlash yo'lida yangi, «zamon ruhiga mos» bolalarni tarbiyalashdek muhim vazifa turardi. Chunki o'sib kelayotgan avlodni «inqilobiy ruh»da tarbiyalash bolsheviklar hukumati oldidagi muhim ahamiyatga molik vazifalar qatoriga kirar edi. Aynan o'sib kelayotgan bolalar ruhida «inqilobga sodiq»likni shakllantirish uchun ular yangi hokimiyat «afzallik»larini ko'rishi, bolsheviklar hokimiyatini saqlab qolish, himoya qilish va kerak bo'lsa shu maqsadda o'z jonini fido qilishga tayyor bo'lishi katta ahamiyatga molik vazifalar qatorida turardi. Ammo oktyabr to'ntarishi (1917) amalda nafaqat katta yoshdagilar, balki o'sib kelayotgan bolalarni ham siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish oqibatining qurbonlariga aylantirib qo'ydi. Umuman olganda, hokimiyat uchun kurash bolalarni ham o'z holiga tashlab qo'yilishiga, ularni och-nahor, bir burda non ilinjida turli joylarda sang'ib yurishiga olib keldi.

Mamlakatda davom etayotgan fuqarolar urushi va chet el harbiy intervensiyasi natijasida, to'la bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra, 4 mln. atrofida bolalar nafaqat o'z ota-onalarini yo'qotdilar, balki ular boshpanasiz, oziq-ovqatsiz, nazorat va tarbiyasiz qoldilar. Sovet hokimiyati rahbariyati oldida nazoratdan chetda qolgan bolalarni o'z qaramog'iga olib tarbiyalashdek murakkab vazifa ko'ndalang bo'lib qoldi⁵⁴.

Sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillari, ayniqsa 1920 yili, bolalar jinoyatini oldini olish bo'yicha, xususan yangi sotsialistik jamiyat qurishga yo'naltirishdagi faoliyatlaridan biri natijasi sifatida RSFSR xalq maorifi komissarligi qoshida tashkil topgan «Bolalikni himoya qilish bo'limi» bo'ldi. Ushbu bo'lim o'z tarkibi va faoliyatiga quyidagilarni olgan edi:

- bolalar uyi;
- bolalarni huquqiy himoya qilish;
- balog'atga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi;

⁵⁴ Софинов П.Г. Очерки истории ВЧК (1917-1922 гг.). М., Государственное издательство политической литературы, 1960.- С. 214-215.

- bolalar militsiyasi (inspeksiyasi ham);
- bolalarni qabul qilish joyi (hibsga olish joyi)⁵⁵.

Sovet hokimiyati tomonidan qilingan keyingi qarorlardan biri 1920 yil aprelida bolalarni huquqiy himoya qilish bo'yicha «Bolalar militsiyasi»ni tashkil qilish bo'ldi. Shuningdek, RSFSR xalq maorifi komissarligi qoshidagi «Bolalikni himoya qilish bo'limi»da alohida qabul qilish punkti tashkil etilib, unga kichik va balog'at yoshiga yetmaganlar, ya'ni:

- 1) jamiyat uchun xavf tug'dirishda ushlanganlar;
- 2) tilanchilik, fohishabozlik, mayda chayqovchilik bilan shug'ullanuvchilar;
- 3) nazoratdan chetda qolgan va adashib qolganlar qabul qilingan.

«Bolalar militsiyasi»ni alohida tashkil qilishdan maqsad, balog'at yoshiga yetmagan bolalarni katta yoshdagi huquqbuzarlarni qabul qilishga mo'ljallangan militsiya uchastkalariga yubormasdan alohida saqlash edi. «Bolalar militsiyasi» xodimlari temir yo'l stansiyalari, vokzallar, bozorlar, choyxona va oshxonalar, kechki tunash joylarida muntazam aylanib yurib, nazoratsiz, huquqbuzar, daydi bolalarni aniqlash bilan shug'ullanganlar.

Sovet hokimiyati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, joylarda qarovsiz-nazoratsiz bolalar soni borgan sari ko'payib boraverdi. O'z navbatida ko'riyatotgan sa'y-harakatlar natijasi o'laroq «Bolalar uy»lari, internatlarga yildan-yilga ko'proq bolalarni jalb etganligi bilan ko'zga tashlanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, RSFSRdagi «Bolalar uy»larida 1917 yili 30 ming nafar atrofida bolalar tarbiyalangan bo'lsa, 1918 yili ularning soni 75 ming, 1919 yili 125 ming, 1920 yili 400 ming, 1921 yili esa 540 ming nafarni tashkil qilgan⁵⁶.

Ma'lumki, ocharchilik azob-uqubatlari aholining nafaqat katta yoshdagilarini, balki himoyaga ko'proq muhtoj bo'lgan bolalarni ham o'z domiga tortgan edi. Ocharchilik yillariga taalluqli gazeta-jurnallar, varaqalar, maxsus byulletenlar va arxiv manbalarini tahlil qilarkanmiz, Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi ocharchilik kattayu kichikni, himoyaga muhtoj bolalaru ayollarni o'z domiga tortib, bir burda non uchun qanchadan-qancha odamlar, ayniqsa balog'at yoshiga yetmagan bolalarni turli «jinoiy ko'chalar»ga kirib ketgani turli manbalarda o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin. Mavjud manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ocharchilik boshlanishi bilan ota-onalar o'zlariga va hatto farzandlariga ham yeyishga ovqat, kiyishga kiyim topa olmay qoldilar. Ocharchilik yillari Simbirsk, Samara, Qozon, Ufa, Orenburg, Saratov, Sterlitomoq va boshqa shaharlarning ko'chalarida, ayniqsa temir yo'l stansiyalari hamda vokzallarida, bozorlarda tilanchilik qilayotgan juldur kiyimli, ochlikdan zo'rg'a oyog'ini sudrab bosayotgan bolalarni ko'plab uchratish mumkin edi. Bu bechora hol bolalarni ko'chalarda, vokzal, stansiya va bozorlarda sanqib yurib yeyishga ovqat, non izlab tilanchilik qilib yurishlariga o'z boquvchisidan ayrilib qolgani va yoki ota-onasi bo'lsa ham ularning kasalmandligi, aka-uka, opa-singillarini boqish ilinjida yurganligi sabab bo'la olardi. Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi ocharchilik katta yoshdagi erkak, ayollar kabi bolalarni ham non topa olmay ildizpoya, qipiq, yumronqoziq, daraxt po'slog'i, kunjara hamda daraxt bargi va ildizlarini ham iste'mol qilishga majbur qilgan. Qish yaqinlashgan sari bu «noz-ne'matlar» ham anqoning urug'i bo'lib borgan. Masalan, 1921 yil iyulidayoq ocharchilik natijasida Samarada o't-o'lanlar ham yeb bitirilayotganligi, dehqonlar non o'rniga yerqalampir iste'mol qilishga majbur bo'layotgani va «dub daraxtining mevasi-cho'chqayong'oq lazatli taom hisoblanayotganligi»⁵⁷ qayd etilgan edi. Ocharchilik qamrovi kengaygan sari ochlardan yuqorida qayd etilganidek, nafaqat o't-o'lanlar, kunjara va ildizpoyalar, balki har xil hayvonlar, xususan iste'molbop va iste'molbop bo'lmaganlari ham qochib qutilmadi.

2.2. Rossiyadan Turkistonga bolalar evakuasiyasi va undan ko'zlangan maqsadlar

⁵⁵ Портнов В.П. ВЧК 1917-1922, М., «Юридическая литература», 1987. - С. 173.

⁵⁶ Софинов П.Г. Очерки истории ВЧК (1917-1922 гг.). М., Государственное издательство политической литературы, 1960. - С 215.

⁵⁷ Расулов А.Н. Туркистон халқи бағрикенглиги. – Тошкент., Yangi nashr, 2011. – Б. 22.

Ocharchilik hududlaridagi ayanchli ahvol zudlik bilan tegishli chora-tadbirlar ko'rishga undardi. Bolalar o'limining borgan sari ortib borishi natijasida Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi rahbariyat amalda Markaz yordamidan umidini uzdi. Shu sababdan ham och bolalar hayotini saqlab qolish, ularni mumkin qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash choralari Rossiyaning ocharchilik hududlari tomonidan mustaqil tarzda izlashga kirishildi. Shu maqsadda 1921 yil iyul oyi boshlarida Orenburg va Samara guberniyalaridan Toshkentga tegishli ravishda Volkov va Krayushkinalar boshchiligida «Bolalar hayotini yaxshilash komissiyasi» vakillari tashrif buyurishdi. Ular o'z tashrifida Toshkent Yangi shahar kengashining 1921 yil 18 iyulidagi majlisida qatnashib, Orenburg, Samara guberniyalarida hukm surayotgan ocharchilik natijasida, bolalarning ahvoli to'g'risida ma'ruza qildilar hamda iqtisodiy ahvoldan kelib chiqib, Volgabo'yi aholisiga yordam berish zarurligini ta'kidladilar. Toshkent Yangi shahar kengashi ushbu masala bo'yicha qabul qilgan qarorida «...oziq-ovqat mahsulotlarini Orenburgdagi, [Samaradagi] ochlarga yetkazish uchun... Yagodin, Golushko, Vlasov, Ivan Kalugin, Novatov, Kikoni ajratadi. Yuqorida qayd etilgan o'rtoqlar tegishli tashkilotlardan oziq-ovqatlarni olib, vagonlarga joylab Orenburg tomon jo'natishsin. Vilgelm va Yagodinlar Toshkent Yangi shahar kengashidan oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish bo'yicha vakil qilib Orenburgga yuborilsin... Yo'lda... qaroqchilar borligi sababli oziq-ovqat mahsulotlarini Orenburggacha qurolli soqchilar kuzatib borsin...» deya qayd etilgan.

Shundan keyin Turkistondagi hamma jamoat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalarini Volgabo'yi, Uraloldi ochlariga yordam masalasini o'tkazilayotgan har bir majlis kun tartibiga qo'ydilar. Shunday majlislardan biri yuqorida qayd etilganidek, Toshkentning Yangi shahar kengashida 1921 yil 18 iyulida bo'lib o'tgan edi. Majlis Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi ocharchilik qamrovi va dahshatini muhokama qildi va Turkiston MIQ qoshidagi «Bolalar hayotini yaxshilash markaziy komissiyasi»ga murojaat qilib, Rossiyaning ocharchilik hududlaridagi bolalardan bir qismini Turkiston o'z qaramog'iga olishi maqsadga muvofiq deb topgan. Aynan o'sha kuni BMIQ ochlarga yordam ko'rsatish komissiyasi (OYo MK) ham bolalarni Rossiyaning ocharchilik qamrab olgan guberniya va respublikalaridan hosildor hududlarga evakuatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilgan edi.

Ochlik azobidan qutulish uchun qishloqlardagi oilalar va hatto butun bir qishloq ahli non, oziq-ovqat izlab turli tomonlarga jo'nab qolganlar. Ayrim ota-onalar o'z farzandlarini birgalikda olib ketish imkoniyatini topa olmay yoki bolalarini «ortiqcha yuk sifatida ko'rib, ...ularni ochnavor o'limini ko'rmaslik uchun taqdir hukmiga» qo'yib berganlar. Natijada bolalar kattalar nazorati va himoyasidan chetda qolgan. Ana shunday himoyaga muhtoj, taqdir taqozosi bilan ko'chalarda, bozorlarda, temir yo'l stansiyasi va vokzallarda tilanchilik qilib, ochlikdan iste'mol qilishga mumkin va mumkin bo'lmagan narsalarni yeb kun ko'rayotgan bolalarni ham Turkiston, Sibir va boshqa hududlarga evakuatsiya qilinishi ko'zda tutilgan edi. O'rni kelganda shuni aytib o'tish kerakki, evakuatsiya qilish imkoniyati bo'lmagan och bolalar ham mumkin qadar nazoratga olingan. Buning uchun ocharchilik hukm surayotgan guberniyalarda, uezdlarda «O'zaro yordam qo'mita»lari tashkil qilinib, bu qo'mitalar zimmasiga aholi orasida ochlik azobini tortayotgan bolalar manzilini aniqlab, ularni ro'yxatdan o'tkazish va joylarda umumiy ovqatlanish joylari hamda oshxonalar tashkil qilish vazifasi yuklatilgan. Ana shunday «O'zaro yordam qo'mita»lari faqatgina Samara uezdida 42 volost, 346 ta qishloq miqyosida faoliyat ko'rsatgan⁵⁸.

Bolalarni evakuatsiya qilish masalalari bilan asosan mahalliy xalq maorifi bo'limi (XMB) va uning maxsus vakili shug'ullangan. Maxsus vakil tegishli sog'liqni saqlash bo'limi xodimlari bilan evakuatsiya qilinishi lozim edi. Xususan, evakuatsiya qilinadigan bolalarni meditsina ko'rigidan o'tkazish va sanitariya jihatdan tayyorlashi kerak bo'lgan. Bolalarni meditsina

⁵⁸ Расулов А.Н. Туркистон халқи бағрикенглиги. – Тошкент., Yangi nashr, 2011. – Б. 26.

ko'rigidan o'tkazilishida uch guruh, ya'ni sog'lom, nosog'lom, ammo yuqumli kasallikka chalinmaganlar va yuqumli kasallikka duchor bo'lganlarga bo'lingan. Dastlabki ikkita guruhga taalluqlilar evakuatsiya qilinishi ko'zda tutilib, ayni paytda kasal ammo yuqumli kasallikka chalinmagan bolalarni alohida vagonlarga joylashtirilishi shart edi. Shuningdek, u yoki bu tashkilotlardan evakuatsiya qilinishida bolalarni jo'natishdan avval ikki haftalik karantindan o'tkazilgan. Evakuatsiya qilinishi lozim bo'lgan bolalarni yuvintirish, kiyim-boshini almashtirish, sochini oldirish ko'zda tutilgan edi.

Markaz Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan Turkistonga och bolalarni evakuatsiya qilish bilan ularning ta'minotini amalda o'lka rahbariyati zimmasiga yuklab qo'ygan. Markazning och bolalar muammosini o'zidan soqit qilishi 1921-1922 yillarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Turkiston rahbariyati tomonidan Markaz e'tiborini och bolalar uchun uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va yetarli mablag' yo'qligiga bir necha bor qaratilganiga qaramasdan, bu muammo yechimidagi sa'y-harakatlar yetarli darajada hal bo'lmay qolaverdi. Masalan, 1921 yil noyabr oyi oxirlarida Moskvada ocharchilikni bartaraf etish bo'yicha o'tkazilgan majlisda Turkiston vakili o'lkaga keltirilgan och bolalar ahvoli og'irligi va hatto ta'minotdagi ayanchli ahvol to'g'risida keng qamrovli ayanchli ma'lumotlarni berganiga qaramasdan, Markaz tomonidan o'lkaga «taqsimot bo'yicha hych qanday materiallar, jumladan mablag'» berish ko'zda tutilmay, «xuddi Moskva uchun Turkiston mavjud emasdek, Turkistonni [oziq-ovqat, mablag' taqsimotiga] mutlaqo qo'shmaganlar»⁵⁹. Haqiqatan ham Markaz amaliy faoliyatida ocharchilik hududlariga berayotgan mablag', kiyim-kechak, g'alladan ko'mak qilish bo'yicha qilgan qarorida Turkiston manfaatlari inkor etilgan. Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan bunday «muammolarga ko'z yumish tartibi», oxir-oqibatda evakuatsiya qilinayotgan bolalarni joylashtirish, salomatligi, oziq-ovqat ta'minoti, kiyim-kechagi bilan bog'liq muammolar qatorida och-qochoq tariqasida kelgan bolalarni ta'minotidagi murakkabliklarni yanada kuchaytirgan.

Evakuatsiya munosabati bilan RSFSR xalq maorifi komissarligi hamma ocharchilik hukm surayotgan hududlardagi bolalarni jo'natish bilan shug'ullanuvchi xalq maorifi bo'limlariga maxsus ko'rsatma xati yuborib, unda evakuatsiya bilan bog'liq quyidagi vazifalarni talab qilgan:

- ocharchilik hududlaridan bolalarni evakuatsiya qilinishi munosabati bilan tarbiyachilar bolalar qaerga evakuatsiya qilinsa, o'sha yerda tarbiya bilan shug'ullanadi va butunlay mahalliy xalq ta'limi ixtiyorida qoladi;
- tarbiyachilar o'z vazifalarini vijdonan bajarmasalar ishdan bo'shatilishi mumkin;
- evakuatsiya qilingan bolalarning tarbiyalovchilari ham, mumkin qadar, aynan o'sha millat vakillaridan bo'lishlari kerak.

Markazdan evakuatsiya jarayoni bilan bog'liq berilgan mazkur ko'rsatma ocharchilik hududlaridagi bolalar va ayni paytda tarbiyachi-o'qituvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Birinchidan, bolalar notanish kishilar nazoratiga tushmay, balki o'z tarbiyachi-o'qituvchilari qo'lida bo'lganlar, ikkinchidan, tarbiyachi-o'qituvchilarning o'zi ham bolalar qatori hosildor hududlarga evakuatsiya qilinib, ocharchilik azob-uqubatlaridan qutilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Mavjud arxiv ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, joylarda och bolalarni Turkistonga evakuatsiyasida tarbiyachi-o'qituvchi bo'lib ketishni xohlaganlar ko'p bo'lgan. Masalan, Orenburg xalq ta'limi bo'limiga ko'plab o'qituvchi-tarbiyachilar murojaat qilib, o'zlarini Turkistonga evakuatsiya qilinayotgan bolalar bilan sanitariya poezdida tarbiyachi sifatida yuborishlarini so'raganlar.

Kelayotgan bolalarni joylash muammosi Toshkent temir yo'lining ocharchilik hududlaridan kelganlar bilan to'lib ketganidan va och bolalar joylashgan poezd esholonlarini yo'llarda to'xtab turishga majbur bo'lganidan ham bilsa bo'lar edi. Masalan, Turkiston stansiyasida 1921 yil noyabr oyi oxirlarida 2000 dan ortiq och bolalar to'planib qolgan va

⁵⁹ ЫЗР МДА, Р.22-фонд, 1-рыйхат, 14-иш, 19-вара=.

ulardan har kuni o'rtacha 70 ga yaqini kasallikdan o'lardi⁶⁰. Ko'rinib turibdiki, Turkistonga evakuatsiya qilinayotgan bolalar ahvoli shunchalar ayanchli tarzda ediki, ayrim hollarda ularning ma'lum bir qismi Toshkentga yetib kelmasdan o'lib qolardi. Bunga och bolalarning og'ir yuqumli kasalliklarga chalilib, vagonlarda bir-biriga yuqtirgani, amalda och-yalang'och bo'lib, holdan toyganini sabab qilib ko'rsatilgan. Masalan, 1921 yil dekabri boshlarida Boshqirdistonning janubiy kantonlaridan yig'ilgan och boshqird bolalaridan 280 nafari sanpoezdga Turkistonga jo'natilgan bo'lsa, ulardan «80 nafarga yaqini yo'lda turli kasalliklardan vafot etgan» edi. Och bolalar evakuatsiyasi bilan bog'liq shunga o'xshash holat boshqa hududlarda ham ayanchli holda davom etgan. Masalan, 1922 yil 3 sentyabrda Boshqirdiston MIQ qoshidagi OYo MK raisi Adigamov Rossiya sog'liqni saqlash xalq komissarligiga telegramma orqali murojaat qilib, 81-sonli sanpoezdga Sibirga evakuatsiya qilinayotgan 455 nafar och boshqird bolalarini Semipalatinskda ushlab qolingani qayd etib, «bolalar orasida yuqumli kasalliklarga chalinganlar ko'payib bormoqda. [Bolalarni] yana ushlab turish falokatga olib kelib, [bu] hamma bolalarni o'limi bilan tugaydi», - deb o'z xavotirini bildiradi.

Evakuatsiya tariqasida keltirilayotgan och bolalarni joylashtirish muammosi borgan sari boshi berk ko'chaga kirib borayotganidan Turkistondagi kichik-kichik harbiy qismlar ham o'z qaramog'iga bolalarni boqish va tarbiyalash uchun ola boshlagan. Shuningdek, ayrim oilalar ocharchilik hududlaridan kelgan bolalardan bitta-ikkitasini farzandlari qatoriga qo'shib, ularga boshpana berib, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan ta'minlaganlar.

Markaz tomonidan och bolalar hayotini saqlab qolish eng muhim vazifalardan biri deb qabul qilinganiga qaramasdan ahvol borgan sari mushkullashib bordi. 1921 yil 4 dekabrda keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Volgabo'yi, Uraloldi hududlarining ocharchilik hukm surgan guberniyalaridagi ahvol borgan sari og'irlashib borayotganligi, bolalar to'yib ovqat yemayotganligi sababli turli kasalliklar kelib chiqishi oqibatida ularning o'limi borgan sari ortib, bu holat joylarda 30 foizdan 70 foizgacha borgan. Markaz tomonidan bolalarni saqlab qolish uchun ocharchilik hukm surayotgan hududlarga 6 ta «Vrach-ovqatlantirish punktlari» yuborilib, bu punktlar sutkasiga 14 ming nafar bolalarni tekshiruvdan o'tkazgan. Shuningdek, bolalar oziq-ovqati uchun joylarga 20 mlrd. rubl berilgan. Bolalarni ovqatlantirish uchun Rossiya xalq maorifi komissarligiga 380 ming payok berilgan. Ocharchilik hududlaridan 35 ming nafar bolalar Turkiston, Sibir kabi hosildor deb topilgan hududlarga evakuatsiya qilingan. Bolalar uchun yuqorida ko'rsatilgan davrda 3 mln. arshin mato ajratilgan. Ammo shunga qaramasdan, ocharchilik hududlarida bolalar ahvoli og'irlashib boraverardi.

2.3. Turkistonda bolalar ocharchiligining bartaraf etilishi

Shunday qilib, 1921 yil oxirlariga kelganda Volgabo'yi va Uraloldi hududlaridan Turkistonga keltirilayotgan och bolalar soni juda ko'payib ketdi. Markaz tomonidan belgilangan Turkistonning «qabul rejasi»dan bir necha barobar ortib ketishiga olib keldi. Natijada keltirilayotgan och bolalarning hammasini joylashtirish imkoniyati juda qiyinlashdi. Bu esa kelayotgan och bolalarni boqish bilan bog'liq muammoni yanada kuchaytirdi. Internatlar to'lib ketganidan hatto ayrim katta hovlilarni ham ta'mirlab, bolalarni joylashtirishga moslashtirildi.

Turkistonga evakuatsiya qilinayotganlar oqimi kundan-kunga ko'payib, ayni paytda ularga boshpana ajratish, oziq-ovqat ta'minoti ham murakkab muammolardan biriga aylanib bordi. Ochlar oqimi shunchalik ko'payib ketdiki, joylarda OYo komissiyasi nafaqat ularni joylashtirish, balki qabul qilishga ham ulgura olmay qoldi. Joylarda nafaqat tashkilot, maktab binolari, balki yaroqli aholi uylari ham keltirilayotgan ochlar bilan to'lib ketgan edi. Bunday holat kelayotgan ochlar oqimini Turkistonda qabul qilish imkoniyatini borgan sari qisqartirib borardi. Shu munosabat bilan Chernyaev uezd ijroiya qo'mitasi raisi Bayduratov 1921 yil 19

⁶⁰ Расулов А.Н.

dekabrda ochlarni qabul qilish, joylashtirish bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha o‘z tashvishini quyidagi tarzda bildirgan: «Chernyaev uezdi va bolalarni keragidan ortiq qabul qildi, hamma tashkilotlarga tiqildi... ish to‘xtab qoldi. Kasalxona va «Bolalar uyi»ga, yaroqli xususiy uylar ochlarga to‘ldirildi. Ochlarni yana qabul qilish imkoniyati yo‘q va kelayotganlarni yana Toshkentga qaytariladi, chunki shahardagi hamma uylarda terlama kasaliga yo‘liqqanlar bor, yuqumli kasallik shahar bo‘ylab tarqagan va ovul hamda qishloqlarga xavfi ham bor. Agar ochlar oqimi kelishi to‘xtatilsa, yuqumli kasalliklar tarqashini to‘xtatish mumkin». Yuqorida keltirilgan tarixiy dalillardan ma‘lum bo‘ladiki, kelayotgan ochlarni joylashtirish katta muammo tug‘dira boshlagan. Endilikda joylardan Turkiston MIQ qoshidagi OYo MKga bolalarni uezd, viloyatlarga yuborishni to‘xtatish istagini bildirib murojaat qilishlar ko‘payib ketdi. Masalan, Namangan uezd ijroiya qo‘mitasi 1921 yil 22 dekabrda Farg‘ona viloyat OYo kommissiyasiga qilgan murojaatida «...bolalarni yuborishni to‘xtatishingizni so‘raymiz, chunki shaharda ularni joylashtirishga bino qolmadi. ...buning ustiga bolalarga bergani ichki kiyim, choyshab, krovat, matras va shuningdek oziq-ovqatlar yo‘q ... Viloyat xalq maorifi bo‘limidan internatlardagi ota-onasi bor mahalliy bolalarni chiqarish to‘g‘risida taklif kiritishingizni so‘raymiz», deyiladi. Ammo bunday bolalar evakuatsiyasini to‘xtatishga oid murojaatlar, iltimos hamda talablarga qaramasdan Rossiyadan kelayotganlar oqimini to‘xtatish juda qiyin edi. Har qanday murojaat, evakuatsiyani to‘xtatishga qaratilgan so‘rovlarga Turkiston MIQ qoshidagi OYo MK va o‘z navbatida Markaz hyech qanday amaliy yordam bera olmasdi. Chunki kelayotgan och bolalar oqimini yana o‘sha ocharchilik hukm surayotgan hududlarga qaytarishning amalda iloji yo‘q edi...

Boz ustiga Turkistonda panoh topgan hamma bolalar ahvoli ham yaxshi deyish qiyin edi. Yuqorida qayd etilganidek, ayrim hududlarda Rossiyaning ocharchilik hududlaridan keltirilgan bolalar uchun dastlabki paytlarda boshpana, kiyim-kechak, oziq-ovqat muammosi bo‘lmagan holda, oradan bir oz o‘tib bolalar ta‘minotida uzilishlar ko‘zga tashlana boshladi. Ammo bunga sabablar ham yo‘q emasdi... Chunki ta‘kidlanganidek, ocharchilik hududlaridan evakuatsiya qilinayotganlar soni ko‘zda tutilganidan bir necha baravar ortib ketdi. Amalda bu Turkiston MIQ qoshidagi OYo MK va uning joylardagi bo‘limlari faoliyatini izdan chiqarib, tashkiliy masalalarda, ta‘minotda boshboshdoqlik holatlariga olib keldi. Ayniqsa bunday holat, ya‘ni ocharchilik dahshati va uning achinarli oqibatlarini ko‘proq bolalar hayotida namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Chunki yoshiga ko‘ra bolalar ochlik azob-uqubatlariga, kasallikka ko‘proq mubtalo bo‘lgan. Turkiston MIQ qoshidagi OYo MK va Turkiston xalq maorifi komissarligi hamda ularning joylardagi tegishli bo‘limlari tomonidan qilingan sa‘y-harakatlar tufayli minglab och bolalar muqarrar o‘limdan saqlanib qolgani aniq. Joylardagi ahvol shunchalik og‘irlashib, murakkablashib, izdan chiqib ketdiki, oxir-oqibatda bu muammolarga aybdorni topishda hukumat ojizlik qildi. Bunga o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitini, boshqaruvdagi boshboshdoqlikni, bolsheviklar boshqaruvidagi tizimni ishdan chiqqanini sabab tariqasida keltirish mumkin. Mavjud muammo paydo bo‘lishiga o‘z «hissasi»ni qo‘shgan bolsheviklar endilikda uning yechimi ustida bosh qotirar edilar... Shuni aytish kerakki, bolsheviklar boshqaruv tizimi to‘laqonli ish bermagani holda, amalda joylardagi ochlar fojeasini yengillatishga bel bog‘lab, kunni tunga, tunni kunga ulab ishlaganlar ham kam bo‘lmagan. Shuning uchun ham u yoki bu holatlarni ko‘rib, tugallangan bir xulosaga kelish qiyin... Chunki qilinadigan xulosalar yuzasidan yana bir necha mazmundagi xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi...

Joylardagi keltirilgan och bolalarning achinarli ahvoli to‘g‘risida, Chernyaev uezd «Bolalar komissiyasi»ning raisi V. Popovning Turkiston xalq maorifi komissarligi huzuridagi «Markaziy bolalar kichik komissiyasi»ga 1922 yil 16 yanvarida yozgan hisobotida, Rossiyaning ocharchilik hududlaridan keltirilganlardan kasal, och bolalarni davolashga olinmayotgani va hatto «o‘lgan bolalar murdasini haftalab olib ketilmayotgani» qayd etilgan. Masalan, 1922 yil 11 yanvarda Bogoslavskiy nomli «Bolalar uyi»da yashayotgan bir qiz vafot etgani va bu haqida

uezd sogʻliqni saqlash boʻlimiga murdani olib ketish zarurligi toʻgʻrisida murojaat qilinganiga qaramasdan, hamon murda oʻz joyida ekanligi taʼkidlangan. Bunga sabab qilib Bogoslavskiy nomli «Bolalar uyi»da ishchi-xodimlar yoʻqligini keltirilsa, uezd OYo komissiyasi va uezd sogʻliqni saqlash boʻlimidagilar tomonidan murdani olib ketishni inkor etayotganliklari uqtiriladi.

1922 yil boshlariga kelib Chernyaev uezdining «Bolalar komissiyasi»da och bolalarga yordam koʻrsatish mutlaqo izdan chiqib ketgan edi. Qilinayotgan sa'y-harakatlar oʻz natijasini bermay qoʻygan. Shuning uchun ham V.Popov bunday sharoitda faoliyat yurita olmasligi toʻgʻrisida fikr yuritib, «men bunday ahvolda yashay olmayman... [chunki] mening ishim hyech qanday natija bermayapti» deyish bilan birga, agar Turkiston OYo MKga kerak boʻlsam, «meni qaerda va qanday holatda foydalanishi mumkin boʻlsa – foydalansin, ammo Chernyaevda ishlashdan qutqarsin», - deydi.

Rossiyaning ocharchilik hududlaridan kelayotgan och bolalar muammosi borgan sari mushkullashib borishida keltirilayotgan bolalarni ikki guruhga ajratib, ya'ni musulmonlar (tatar, boshqird v.b.) va yevropaliklarni (rus, nemis v.b) alohida-alohida internatlarga joylashtirish ham sabab boʻlgan. Bunday tartib Tatariston va Boshqirdiston MIQLari huzuridagi tegishli OYo MKlari talabiga binoan amalga oshirilgan edi. Ammo och bolalarni alohida joylashtirishga hamma vaqt ham imkon boʻlavermas va shu sababdan ba'zan ular vaqtincha birgalikda ham yashar edilar. Masalan, Namangan uezd ijroiya qoʻmitasi qoshidagi OYo komissiyasi 1921 yil 19-20 dekabrda uezd inqilob qoʻmitasi a'zolari Shomansurova va Qosimxonovlarga keltirilgan bolalar joylashuvi va shart-sharoitni koʻrsatganlar. Ular bolalarning yashash sharoiti, tarbiyachilarning tutgan oʻrni bilan keng tanishgandan keyin uezd inqilob qoʻmitasida maxsus hisobot berganlar. Atroflicha muhokamalardan soʻng, bolalarni alohida internatlarga, ayrimlarini esa, ya'ni yevropalik-rusiyazabon bolalarni Yangi shahardagi Chardinsev hovlisiga, musulmon bolalarni esa Hamidullaev xonadoniga joylashtirishga qaror qilganlar.

Agar bolalar evakuatsiyasi 1921 yil avgust oyi boshlaridan uyushgan holda oz-ozdan va asosan 9-15 yoshlilardan boshlangan boʻlsa, 1921 yil oxiri va 1922 yildan esa evakuatsiya qilinayotgan bolalar soni koʻpayibgina qolmasdan, balki ularning yoshi ham juda yosharib ketgan edi. Masalan, faqatgina 1922 yil mart oyining boshlarida Rossiyaning ocharchilik hududlaridan kelgan 3 yoshdan 8 yoshgacha boʻlgan 3000 nafar bolalarni Toshkentdagi «Bolalar uyi»ga joylashtirish koʻzda tutilgan boʻlishiga qaramay, amalda, toʻla boʻlmagan ma'lumotlarga koʻra, Turkiston oʻz bagʻriga taxminan 100-120 mingdan ortiq bolalarni qabul qilgan. Yana shuni taʼkidlash kerakki, 1920 yillar boshlaridagi algʻov - dalgʻov voqyealar Rossiyadan evakuatsiya qilingan bolalar sonini toʻla va aniq keltirish imkonini bermaydi.

Turkiston oʻz bagʻriga oʻn minglab bolalarni boqish, kiyintirish uchun qabul qilgan, ammo ayni paytda oʻlkada istiqomat qilayotgan aholi, ayniqsa bolalarning ahvoli ham yaxshi emas edi. Turkistondagi bolalar va ayniqsa Fargʻona viloyati aholisi endigina ocharchilikdan qutulishga ulgurib-ulgurmagan edi. Boz ustiga farzandlarini toʻydirib boqa olmayotgan aholi endilikda evakuatsiya tariqasida Rossiyadan kelayotgan bolalarni ham oʻz bagʻriga olishiga toʻgʻri keldi.

Turkiston internatlaridagi mahalliy bolalar kiyim-kechak bilan 13,5 foizga, oyoq kiyim bilan 15 foizga, oziq-ovqat bilan ham juda oz miqdorda taʼminlangani holda⁶¹, yana Rossiyaning ocharchilik hududlaridan kelayotganlar bolalarni ham oʻz qaramogʻiga olgan edi. Demak, tarix taqozosi shuni koʻrsatdiki, oʻzi yupun, och va kunini arang oʻtkazayotgan Turkiston xalqi Rossiyadan keltirilgan katta-kichik ochlarni boqishga, kiyintirishga va kasallarni oyoqqa turgʻizishiga toʻgʻri keldi. Turkiston xalqi oʻz rizqini kelganlar bilan baham koʻrdi. Bu ham yetmagandek, Rossiyaning markaziy guberniyalaridagi ochlarni boqish uchun ham oziq-ovqat

⁶¹ Иноятов Н.Ш. Коммунистическая партия в борьбе за развития народного образования в Узбекистане (1921-1925 гг.) Дисс... канд. ист. наук. – Т., 1965, – С. 54.

mahsulotlari yuborib turildi. Ana shu maqsadda Turkiston aholisi o'rtasida turli targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borildi. Agar targ'ibot ishlari o'z ta'sir doirasiga kutilgan darajada ega bo'lmagan taqdirda, turli xildagi soliq va taqsimotlarni joriy etildiki, oxir oqibatda bu holat hammasi ochlarga yordam shiori ostida amalga oshirildi. Lekin aynan shu 1921 yil oxiri va 1922 yil boshlaridan Turkiston aholisi, aniqrog'i asosan Farg'ona viloyatidagi aholi ocharchilik azobiga yana giriftor bo'lgan edi. Ammo bunday holatdan Markaz Volgabo'yi ochlarini boqish bilan bog'liq bo'lgandek bezovtalikka, zudlik bilan Farg'ona ahliga yordam ko'lamini kengaytirish harakatiga tushmadi. Hatto Volgabo'yi ochlarini Farg'onadan boshqa viloyatlarga ko'chirish masalasi ham kun tartibiga qo'yilgani yo'q. Farg'onadagi ocharchilik dahshati Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagidek keng miqyosda emas edi. Ammo shunga qaramasdan Turkiston MIQ Farg'onadagi ocharchilik ko'lamidan kelib chiqib, Markazga bir necha bor yordam berish zarurligi, aholining deyarli 500 mingtasi ochlik azobini tortayotganligi to'g'risidagi shoshilinch xabarlarini Moskva rahbariyatini uncha shoshirib qo'ymadi. Chunki Volgabo'yidagi millionlab ochlarni oldida Farg'onaning «atigi» 500 ming och ahli Markazni katta tashvishga qo'ymagan ko'rinadi. Turkiston MIQ Farg'ona viloyatidagi oziq-ovqat tanqisligi bilan bog'liq ahvolni 1922 yil 31 yanvaridagina ko'rib chiqdi. Muhokamalardan so'ng viloyatda yig'ilayotgan xayriyalar to'la-to'kis Rossiya va Farg'ona ochlariga berilsin deb qaror qabul qilindi. Natijada Farg'ona viloyatida xayriya tariqasida yig'ilgan pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak hamma-hammasi viloyatda ocharchilik azobini tortayotgan aholi va evakuatsiya tariqasida Rossiyadan kelganlar uchun sarflanadigan bo'ldi. Qarorga ko'ra Farg'onadan Turkiston MIQ qoshidagi OYo MK fondiga, Markazga oziq-ovqat yuborilmasligi kerak edi. Lekin bunday holat uzoq davom etmadi. 1922 yil 11 fevralida Turkiston MIQ qoshidagi OYo MK raisi M.Brett Farg'ona viloyati OYo komissiyasiga telegramma yuborib, «xayriya pullarini topshirish mas'ulligi shaxsan viloyat raisiga yuklatiladi. Mahalliy zaruriyat uchun faqatgina 50 foiz ajratiladi» deya ko'rsatma beradi.

Ko'rinib turibdiki, Turkiston MIQ va uning qoshidagi OYo MK o'zlari qabul qilgan qarorlarini o'zlari buzishiga to'g'ri kelgan. Ehtimoldan holi emaski, o'sha qaror mazmuni ayrim Toshkentdagi Rossiya emissarlari orqali Markazga yetkazilib, Moskvadagi rahbariyatda norozilik tug'dirishga ulgurgan. Moskvadan Turkiston MIQ rahbariyati nomiga kelgan telegrammalar va boshqa arxiv manbalari tahlili shunday xulosa chiqarishga asos bo'la oladi. Chunki Markaz muntazam ravishda Turkistonda Rossiyaning ocharchilik hududlari aholisi uchun o'tkazilayotgan yordam haftaliklari, spektakl, konsert va lotoreya o'yinlari, sayillar kabi xayriya tadbirlari to'g'risida hisobot olib turardi. Boz ustiga tuman, uezd, shahar, viloyat, Turkiston MIQ qoshidagi OYo MKda faoliyat ko'rsatayotganlarning aksariyati rusiyazon kishilarni tashkil qilgan edi⁶². Ular esa, aksariyat hollarda, Markaz manfaatiga ishlashlari aniq edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, 1922 yil 3 martida Moskvadan, aniqrog'i BMIQ raisi M.I.Kalinindan norozilik ohangidagi telegramma kelgan. Ushbu telegrammada Turkiston MIQ rahbariyatiga «...ma'lumotlarga qaraganda, xayriya tariqasida yig'ilgan pullar, oziq-ovqat va boshqa narsalar qoidaga qarshi mahalliy zaruriyatga sarflanayapgan emish... holbuki [BMIQ] OYo MK belgilagan tartibga ko'ra, yig'ilgan xayriyaning 10 foizigina ocharchilik hududlaridan kelgan och-qochoq va bolalargagina sarf qilinishi mumkin» deb, xarajatning bunday tartibi maqsadga muvofiq emasligini uqtirilgan. O'ylaymizki, ushbu telegramma uchun asos bo'lib, Turkistonda yig'ilayotgan xayriyalarning bir qismini Farg'ona viloyatidagi katta-kichik yoshdagi ochlarga berilayotgani xizmat qilgan bo'lishi mumkin edi.

Markaz tomonidan Turkistondagi turli xayriyalarni nazorat qilish, amalda o'lka aholisidan ko'ra ko'proq Volgabo'yi, Uraloldi hududlari ochlari manfaatini himoya qilishga qaratilgan edi. Boz ustiga Rossiyaning ocharchilik hududlaridan kelayotgan ochlar oqimi 1922 yilda ham davom etdi. Chunki Rossiyaning ocharchilik hududlaridagi iqtisodiy ahvol o'z

⁶² ЎзР МДА, Р.17-фонд, 1-руйхат, 733-иш, 120-варақ.

yurtlarini tark etishga va boshqa hosildor hududlardan panoz izlashga majbur qilardi. Qiyinchilik bilan topayotgan nonini, yupun, juldur kiyimini ham keltirilgan ochlar bilan baham ko'rayotgan Turkiston xalqi, ayniqsa Farg'ona viloyati aholisining o'zi ham bu paytda ocharchilik azoblarini tortardi.

Ta'kidlanganidek, Farg'onada ocharchilik amalda 1921 yil kuzidan boshlangan edi. Ayniqsa bunday holat Turkistonning qishloq hududlarida yaqqol ko'zga tashlanardi. Buning ustiga Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan keltirilgan ochlar oqimi shundoq ham og'ir ahvolni yanada mushkullashtirdi. Farg'onadagi oziq-ovqat zahiralari muammosi Turkiston MIQ va XKK tomonidan 1921 yil noyabr-dekabr oylaridagi majlislarda ham maxsus ko'rib chiqilgan edi. Masalan, Turkiston XKK raisi Q.Otaboev Farg'onadagi iqtisodiy ahvolni yanada chuqurroq o'rganish uchun 1922 yil fevral oyida viloyatning uezd, shahar va qishloqlarida bo'ldi. U Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan keltirilganlar uchun tashkil etilgan joylardagi «Bolalar uylari», internatlarlarda istiqomat qilayotgan bolalar va undan tashqari mahalliy aholining iqtisodiy ahvoli bilan yaqindan tanishdi. Joylardagi ahvol shuni ko'rsatadiki, Rossiyadan evakuatsiya tariqasida kelganlar va ayni paytda yerli aholining oziq-ovqat ta'minoti ham qoniqarli emas edi. 1922 yil 19 fevralida Q.Otaboev, I.Xidiraliyevlar Farg'ona viloyati inqilobiy qo'mitasi majlisida qatnashib, viloyat oziq-ovqat komissari Krassning iqtisodiy ahvol to'g'risidagi hisobotini tinglaydi. Majlisda keng va atroflicha muhokamalardan so'ng, Farg'onadan yig'ilayotgan oziq-ovqat solig'ini bekor qilib, viloyatga non, go'sht mahsulotlari boshqa viloyatlardan yetkazish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilgan. Shuningdek, ushbu qarorda Farg'ona viloyati oziq-ovqat organlariga Buxoro respublikasi va Sirdaryo, Samarqand va Turkman viloyatlari bilan tovar almashtirishga kirishishi hamda shu maqsadda 1922 yil mart oyi uchun 5 milliard rubl ajratishga to'xtalangan edi.

Farg'ona viloyatidagi oziq-ovqat muammosi kundan-kunga og'irlashib boraverdi. Mavjud holatdan kelib chiqib, Turkiston MIQ o'zining 1922 yil 11 maydagi majlisida Farg'ona viloyatini ocharchilikka uchragan deb qaror qabul qildi. Shu munosabat bilan endilikda Samarqand va Turkman viloyatlariga nafaqat Volgabo'yi, balki Farg'ona viloyati ham yordam ko'rsatish bo'yicha birlashtirilgan edi⁶³. Aslida bunday holat Samarqand va Turkman viloyati aholisi uchun yana og'ir yuk bo'ldi. Lekin shunga qaramasdan, 1922 yil may oyi o'rtalaridan sentyabr oyi o'rtalariga qadar Samarqand viloyat OYo komissiyasi Volgabo'yi ochlariga beriladigan yordamdan tashqari yana Farg'ona viloyati ochlari uchun 770 pud g'alla, 130 pud kishmish, 81 pud 0,5 funt guruch, 6 pud un, 6 pud jo'xori, 9 pud quritilgan meva yuborgan bo'lsa, aynan shu davrda Turkman viloyatidan ham 2090 pud g'alla, 88 pud jo'xori keltirilgan edi. Ammo bu yordam Farg'ona ochlari uchun yetarli emas edi.

Yuqorida qayd etilganidek, 1922 yil 11 maydagi Turkiston MIQ qaroriga muvofiq, Farg'ona viloyati ocharchilikka uchragan deb qaror qabul qilinganiga qaramasdan, yordam ko'lamini juda oz miqdorda bo'lganidan mahalliy aholining yordam (oziq-ovqat)ga muhtojligi ortib boraverdi. Chunki hali hamon Volgabo'yi ochlari Turkistonda, jumladan Farg'ona viloyatida istiqomat qilardi. Boz ustiga Rossiyaning ocharchilik hududlaridan Turkistonga keltirilayotganlar amalda to'xtatilmagan edi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, e'tiborning eng ko'p qismi hamon Volgabo'yi, Uraloldi hududlari ochlarini boqishga qaratilgan edi. Masalan, Farg'ona viloyat aholisi ochlikdan azob-uqubat tortayotgan bir paytda ham, ayrim OYo komissiyasi rahbarlari tomonidan xayriya va boshqa tadbirlar asosida yig'ilgan oziq-ovqatni mahalliy aholiga berishni yuqori organlardan so'rashganini qanday tushunish mumkin? Dalillarga murojaat qiladigan bo'lsak, Andijon uezd-shahar OYo komissiyasi raisining o'rinbosari Mixaylov 1922 yil 23 mayda Farg'ona viloyat OYo komissiyasi rahbariyatiga murojaat qilib, «yig'ilgan oziq-ovqat mahsulotlarini mahalliy ochlarga tarqatish mumkinmi?», deb so'raydi. Axir 1922 yil 11 mayda Turkiston MIQ tomonidan Farg'ona viloyatini

⁶³ Расулов А.Н. Туркистон халқи бағрикенглиги..... – Б. 63.

ocharchilikka uchragan deb e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilingan edi-ku... Aslida shunday ahvolni kelib chiqishiga Markaz va uning Turkiston rahbariyatidagi emissarlari olib borgan siyosat sababchi edi. Aynan Turkiston MIQ qoshidagi OYo MK hamon asosiy e'tiborni Volgabo'yi ochlariga qaratishni davom ettirar edi. Xayriya va tadbirlardan tushgan mablag', oziq-ovqat va kiyim-kechaklar asosan Volgabo'yidan keltirilgan och bolalarga ajratilar edi.

X U L O S A

Xotin-qizlar masalasi har bir davrning muhim va qizg'in bahs-munozaralarga boy masalalaridan biri hisoblanadi. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkiston asriy qoloqlik va mustamlakachilik davrida kun kechirayotgan bir davrda o'lkada jadidchilik g'oyalari vujudga keldi. Mazkur g'oya tarafdorlari mamlakat ijtimoiy va madaniy hayotini tubdan yangilash taklifi bilan chiqib xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqli bo'lish va ularni kelajak avlodning mukammal tarbiyachisi sifatida ko'rishning asosiy omili etib ma'rifatli bo'lishlari lozimligi haqidagi fikrlarni bildirdilar. Mazkur masala bo'yicha vaqtli matbuotda dastlab ma'rifatparvar ayollar dadil qarashlar bilan chiqib, mahalliy xotin-qizlar ijtimoiy faolliklarini oshirish va yangi usul maktablarning muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishida jonbozlik ko'rsatdilar.

Sovet hukumatining madaniy qurilishi yillarida ayollarni madaniy hayotda jonlantirish va xotin-qizlar masalasini mavaffaqiyatli hal qilish ishlari olib borildi. Turkistondagi xotin-qizlar masalasi tahlili quyidagi hulosalarni keltirib chiqaradi:

- tadqiqot jarayonida ziyoli xotin-qizlar sovet hukumati qurilishi yillarida muhim davlat vazifalarida faoliyat ko'rsatganliklari aniqlandi. Hukmron firqa xotin-qizlar maorifini tez sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha usullarni amalga oshirgan;

- xotin qizlarning ijtimoiy muammolarini hal etish borasida amalga oshirilgan barcha tadbirlar sovet hokimiyatining strategik manfaatlaridan kelib chiqqan va unda mahalliy aholining asrlar davomida amal qilib kelingan qadriyatlarini inobatga olinmadi;

- Turkistonda 1917-18 yillarda tashkil etilgan "Muslimalar jamiyati" va uning Rossiya "Muslimalar jamiyati" bilan hamkorligi xotin-qizlar maorifini jonlanishiga hamda ular orasida savodsizlikni ma'lum darajada kamayishiga olib keldi. Bunday qulay vaziyat bolsheviklar ko'zlagan maqsadga mos bo'lib, "Muslimalar jamiyatlari" faoliyatini kengaytirishga sharoit yaratib berdilar;

- XX asrning 20-yillarining birinchi yarmigacha ya'ni ma'muriy buyruqbozlik tizimining to'la o'rnatilgunga qadar bo'lgan davrda madaniy-ma'rifiy sohalardagi olib borilgan islohotlar xotin-qizlar hayotida ijobiy o'zgarishlar yasadi. Jumladan, xotin-qizlar savodsizligini tugatish ularni erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash borasida olib borilgan islohotlar natijasida mahalliy millat xotin-qizlarinig ijtimoiy faolligi oshdi. Ularning madaniy jarayonlardagi ishtiroki jonlandi;

- xotin-qizlar masalasini hal etishda sovet hokimiyati mahalliy millatning asrlar davomida saqlanib kelgan diniy va milliy urf-odatlarini hamda madaniy merosini inkor etgan holda o'tkazgan madaniy sohadagi islohotlar ijtimoiy hayotda asoratli oqibatlarga olib keldi. Jumladan, savodsizlikni tugatish maktablariga xotin-qizlarni borishlariga qarshilik ko'rsatgan erkaklarni jazolash chora tadbirlari ko'rildi. Bu esa ko'plab oilalarni barbod bo'lishiga olib keldi;

- Sovet hokimiyatining "Hujum" harakatini ko'r-ko'rona amalga oshirishi natijasida ko'plab xotin-qizlarning hayotdan bevaqt ko'z yumishiga sabab bo'ldi. Oilaviy muammolarning kelib chiqishiga va keyingi jarayonda ayollar mehnatidan keng ko'lamda foydalanishga zamin hozirladi;

- "Hujum" kampaniyasidan so'ng "ozodlikka chiqqan Sharq ayollari" ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida og'ir mehnatlarni erkaklar bilan teng bajarishga majbur etildi;

- "Hujum" harakatining samarasi o'laroq "yangi ayollar" yuzaga keldi. Bular aktyor va faollargina emas, balki yuzlab o'qituvchilar, tilmochlar, tibbiy hamshiralar, klublar, kutubxonalar xodimlari, xotin-qizlar artellari va qishloq kooperativlari tashkilotchilari, universitet talabalari, maktab muallimlari edi;

- Sharq ayollarining ozodligining e'lon qilinishi bu amalda ulardan ulkan mehnat armiyasini tashkil etish bilan izohlanadi. Chunki xotin-qizlar mehnat armiyasi darhol paxta dalalariga, to'qimachilik fabrikalaridagi dastgohlar yoniga, ilmiy laboratoriyalarda sotsializm qurilishiga qo'shildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar

1. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7- жилд. –Т.: Ўзбекистон. 1998. – 385 б.
2. Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Респуб–ликаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004, № 18, - 124 б.
3. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз-Т.: Ўзбекистон, 2 жилд. 1999. – 256 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 16 декабрда «Ўзбекистоннинг янги тарихини тайёрлаш ва нашр қилиш ҳақида» ги қарори // Халқ сўзи, 1996. 17 декабр.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон овози, 1998. 28 июль.
6. Каримов И. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда, -Т.: Ўзбекистон, 2000, -351 б.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (XIX аср охири ва XX аср). – Т.: «Ijod dunyosi», 2004. - 224 б.
2. Азиззода Л. Янги ҳаёт курашчилари. –Т., Фан, 1976, - 144 б.
3. Алимова Д.А. Жадидчилик мустақиллик даври тарихчиси талқинида // Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. – Т.: Эльдинур. 1998. - 94 б.
4. Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Т.: Академия, 1999. - 53 б.
5. Алимова Д.А. Решение женского вопроса в Узбекистане. /1917-1941г.: Краткий ист. Очерк / АН УзССР. Инс-т Истории. –Т., Фан, 1987. – 69 с.
6. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы / АН Руз. Инс-т Истории . –Т., Фан, 1991. - 133 с.
7. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. Москва: Наука, 1985. - 355 б.
8. Ахтямова Н.С. Хотин-қизлар масаласи: Икки дунё, икки хил ёндашув. –Т.: Билим, 1987. - 25 б.
9. Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш, -Т., Узфанакадемнашр, 1961. - 329 б.
10. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. - 126 б.
11. Жадидчилик, ислоҳот, янгилашиш, муатақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т., 1999. - 218 б.
12. Камолов У. Ўзбекистон хотин-қизлар маорифининг ривожланиши // Совет мактаби, 1974, №1,
13. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Т.: Университет, 2007. – 184 б.
14. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. (Жадидчилик тарихидан лавҳалар.) / нашрга тайёрловчи С.Холбоев. – Т.: Шарқ, 2001, -128 б.

15. Мустафаева Н. Туркистон миллий зиёлиларининг қарашларида аёлларнинг оила ва жамиятда тутган ўрни масалалари роли ва гендер муаммолари: Илмий- амалий конференция маърузалари тўплами. Т.: Фан, 1999. - 180 б.
16. Мустафаева Н.А. «Туркистон тўплами»да миллий маориф масалалари // Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. I қисм. – Т., 2006. - 160 б.
17. Нурмухаммедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – 96 б.
18. Оқилов К. Аббасова Л. Ўзбекистон хотин-қизлари маданий қурилишда. –Т., 1976, - 60 б.
19. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи // Адабий мерос. 1992, №1,
20. Ризаев Ш. Жадид драмаси. - Т.: Шарқ, 1997. - 320 б.
21. Расулов А.Н. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Т.: Университет, 2005. - 200 б.
22. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. Т.: Фан, 1991. - 72 б.
23. Турдиев Ш. Адабий ҳамкорликлар самараси (Ўзбек-татар адабий алоқалари тарихидан). – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. - 128 б.
24. Чеботарёва В.Г. Ўзбекистон хотин қизлари янги жамиятнинг актив қурувчилари. – Т.: Билим, 1987. – 26 б.
25. Шукурова Х.С. Социализм и женщина Узбекистана. –Т., Из-во. Узбекистан, 1970. - 365 с.
26. Шодмонова С. Туркистон хотин-қизларининг жамиятда тутган ўрни. Жамият ва бошқарув, 2006, №2.
27. Херман Вамбери. Маърифат йўлидаги уйғониш /Озод Обид таржимаси. Тафаккур, 2000, №2.
28. Қосимов Б. Миллий уйғониш. - Т.: Маънавият, 2002. - 398 б.
29. Қосимов Б. Долимов У. Маърифат дарғалари. –Т.: Ўқитувчи, 1997. -287 б.
30. Қор қўйнида лолалар. Масъул муҳаррир Б. Шарипов, -Т.: Академия, 2001, -213 б.